

Buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomiz Oqsaroy peshtoqiga «Adolat – davlatning asosi va hukmdorlar shioridir» degan hikmatli soʻzlarni yozdirgani bejiz emas, albatta. Ushbu ulugʻvor gʻoya inson qadr-qimmatini oliy darajaga koʻtarish borasidagi amaliy harakatlarimiz poydevoriga aylandi.

Shavkat MIRZIYOYEV

# POSTDA

Sohibqiron Amir Temur  
tavalludining 690 yilligi

2026-yil 9-aprel payshanba № 15 (4761) HA IPOCTY \* AT THE POST

## KOʻZIM QABOGʻIDA ASRAY VATANNI!



**V**atan himoyachisi deganda xalqimiz koʻz oʻngida eng avvalo qaddi-qomati kelishgan, egniga harbiy libosi yarashgan, Vatani jondan sevuvchi, tinchlik va barqarorlikni saqlashda har qanday jasoratga tayyor mard va botir oʻgʻlonlar namoyon boʻladi. Armiya saflarida xizmat qilish yigit uchun ulkan sinov va hayot manbayidir. Bugun bunday saflarda nafaqat jismonan kuchli, balki eng zamonaviy harbiy texnikalarning sir-asrorlarini puxta egallagan, yuksak aql-zakovat, intellektual salohiyati mustahkam, Vatani, xalqiga sadoqatli, olijanob fazilatlar bilan ham ajralib turadigan asl oʻgʻlonlar xizmat qilishadi.

(Davomi 4-betda).



## Xavfsiz mahalla

SUVONOBOD –  
OSOYISHTA MANZIL

**Nargiza (ismi o'zgartirildi) turmush o'rtog'ining ichkilikka mukkasidan ketganidan bezor bo'ldi. Na uyida halovat bor, na ro'zg'orida baraka. Farzandlari ham har kech dadaning chayqala-chayqala kirib kelishidan, uxlab qolishini kutishdan bezillab qolishgan.**

Oiladagi bu vaziyat mahalla profilaktika inspektori nazaridan chetda qolmadi. U sud qarori asosida oila boshlig'ini ichkilikbozlikdan davolanishi maqsadida dispanserga joylashtirdi. Hartugul, hali or-nomusini yo'qotmagan ekan, erkak o'zini qo'lga oldi. Tibbiy muolajalar va iroda kuchi bilan ichkilikni butkul tashladi. Oilaga halovat, xursandchilik qaytdi. Mahalla yettiligi bu oilaning keyingi ahvolidan muntazam xabardor bo'lib, ularni qo'llab-quvvatlab turibdi.

Paxtakor tumanidagi «Suvonobod» mahallasida 2025-yil va joriy yil davomida bironta ham jinoyat sodir etilmagani tasodif emas. Mahalla yettiligining hamjihatligi, ayniqsa, profilaktika inspektori o'z vazifasini sidqidildan ado etayotgani bois, «Suvonobod» «yashil» toifadagi mahallalar qatoridan tushgani yo'q.

– 4200 nafardan ortiq aholi istiqomat qilayotgan mahallamizda yoshlar salmoqli o'rinni egallaydi. Ularni qo'llab-quvvatlash, har bir yosh bilan manzilli ishlash uchun «Yoshlar daftari», bandlik dasturlari doirasida o'nlab fuqarolar ish bilan ta'minlandi. Tarbiyasi og'ir o'smirlar bilan manzilli ishlash, ularni to'g'ri yo'lga

boshlash maqsadida muntazam tarbiyaviy ishlar olib borilmoqda. Har payshanba o'tkaziladigan profilaktika tadbirlari doirasida aholi o'rtasida huquqiy ongni oshirishga qaratilgan uchrashuv va davra suhbatlari tashkil etilayotir. Ana shu tizimli ishlar samarasi o'laroq, o'tgan yil mahallada birorta ham jinoyat yoki giyohvandlik holati qayd etilmadi, – deydi MFY raisi Shukrullo Husinov.

Darhaqiqat, hududda yoshlarni turli huquqbuzarliklardan asrash, ular qalbida zararli illatlarga qarshi mustahkam immunitet shakllantirish va sog'lom turmush tarzini qaror topirishga ustuvor ahamiyat qaratilgan. Bu yerda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni sport va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga jalb qilish orqali salbiy holatlarning oldini olishga alohida e'tibor berilmoqda. Mahalla sport maydonchasi, sun'iy qoplamali stadionda tez-tez sport musobaqalari, do'stlik turnirlari o'tkazib turilishi bunga misol.

Zamonaviy davr talablari mahallada xavfsizlikni ta'minlashda yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Suvonobod bu borada ham ilg'or hududlardan. Garchi ko'p qavatli uylar bo'lmasada, «tashvish tugmalari»

o'rnatilgan obyektlar va qo'riqlash xizmati nazoratidagi uylar soni ko'payib bormoqda. Fuqarolar uy-joy va mulk daxlsizligini ishonchli qo'llarga topshirishmoqda. Mahalla ko'chalariga 12 ta kuzatuv, 3 ta yuz va avtoraqamni tanib oluvchi kamera o'rnatilib, ular viloyat IIB «Qalqon» platformasiga ulandi. «Mening inspektori» boti orqali aholi profilaktika inspektori bilan bevosita aloqa o'rnatish imkoniga ega bo'ldi. Hozirda 1000 nafardan ziyod fuqaro mazkur mobil ilova orqali hudud profilaktika inspektoriga murojaatlarini onlayn rejimda yo'llashmoqda.

– Men bundan 5 yil muqaddam xizmat faoliyatimni shu yerda, shu lavozimda boshlaganman. O'sha paytda qotillik, bosqinchilik kabi jinoyatlar qayd etilgan edi. O'tgan yillar davomida tun-u kun patrullik qilish, tinimsiz mehnat hamda profilaktik targ'ibotlar, mahalla yettiligi bilan hamjihatlikda ishlash orqali hududning «yashil» toifaga o'tishiga muvaffaq bo'lindi, – deydi profilaktika inspektori, kapitan Shavkat Ibrohimov. – Barcha idoralar va aholi hamjihatlikda ish olib borayotgani samara bermoqda. Raqamlashtirish, «Poytaxt namunasi» asosida kelgusida ham barqarorlikni saqlab turish, mahalla osoyishtaligini doimiy asosda ta'minlashga erishish niyatidamiz.

**Muqaddas SAPAROVA,**  
o'z muxbirimiz.  
Jizzax viloyati.



## Yangi O'zbekiston yoshlari

UMIDLI  
SHIFOKOR

**IIV Tibbiyot boshqarmasi Stomatologiya poliklinikasining tor mutaxassislar bo'linmasi shifokor-stomatolog-jarrohi Fayoz Yunusov ushbu jamoada ish boshlaganiga hali ko'p bo'lmadi. U Samarqand davlat tibbiyot institutining klinik ordinaturasini yo'nalishini tugatgan.**

– Ikki yildirki, poliklinika boshlig'ining o'rinbosari, mayor Alisher Rajabov, bo'linma boshlig'i, katta leytenant Aziz To'xtamurodovning maslahatlari faoliyatimda asqatyapti. Bizda tajribali shifokorlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Men ham ular qatorida ichki ishlar organlari xodimlarining salomat bo'lishlari uchun ozmi-ko'pmi xizmat qilayotganimdan nihoyatda mamnunman. Maqsadim, ushbu xizmatda sharaf bilan ishlab, xodimlar va ularning oila a'zolariga munosib xizmat ko'rsatish, – deydi g'ayratli shifokor F. Yunusov.

**Abu KENJAYEV,**  
fotomuxbir.

Patrul-post xizmati

# XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA

**Farg'ona viloyati IIB JXX JTSB PPX batalyonida Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya qo'mondonligi tomonidan ishlab chiqilgan qo'shma reja talablaridan kelib chiqqan holda, xalqaro ilg'or tajribalarni amaliyotda qo'llashga qaratilgan o'quv mashg'ulotlari o'tkazilmoqda. Bunday ilg'or tajribalar shaxsiy tarkibning jangovar vazifalarni bajarishda birgalikdagi harakatlarini muvofiqlashtirish va takomillashtirishga xizmat qilyapti.**

– Jamoat joylarida xizmat olib borish o'ziga xos murakkabliklarga ega bo'lib, bu har bir xodimdan jismoniy va jangovar shaylikni, hushyorlikni talab etadi. Shu bois patrul har qanday vaziyatga tayyor turishi kerak, – deydi batalyon komandiri o'rinbosari, kapitan G'ofur Erkayev. – Zarurat tug'ilsa, qurolangan fuqaroni zararsizlantirishi, jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatishi shart. Ommaviy tadbirlar o'tadigan joylarda esa tartib-intizomni saqlashda ikki hissa mas'uliyat bilan ishlaydi. Shu bois xodimlarimizning kasbiy jangovar tayyorgarligini oshirishga jiddiy e'tibor qaratib, xorijiy davlatlarda sinovdan o'tgan zamonaviy usullarni ham keng joriy etyapmiz.

Mashg'ulotlar sifatini oshirish va amaliyotga imkon qadar yaqinlashtirish maqsadida vazirlikning tegishli topshirig'i asosida batalyonda maxsus o'quv va amaliyot maydonchalari yaratildi. Bu yerda shahardagi eng gavjum ko'chalarni aks ettiruvchi maxsus jihozlangan yo'laklar, eng gavjum chorrahalarining kichik ko'rinishlari, ommaviy tadbirlar o'tadigan majmualarning maketlari tashkil etilgan bo'lib, malakali mutaxassislar tomonidan mashg'ulotlar bevosita amaliyotga yaqin jarayonlarda olib borilmoqda.

Shuningdek, mashg'ulotlarda yangi tahrirdagi saf nizomi talablariga alohida e'tibor qaratilyapti.

Maxsus vositalar va elektroshoker qurilmasidan to'g'ri foydalanish, qurollangan va ommaviy tartibsizlik yuzaga keltirayotgan fuqaroni zararsizlantirish tartibi bo'yicha ham kerakli tushunchalar berilmoqda. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi va tibbiyot xodimlari bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan o'quvlarda esa jabrlangan odamga birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha ko'nikmalar hosil qilinayapti.

Dala o'quv maydonida tashkil qilinayotgan mashg'ulotlar bir necha o'quv nuqtalariga bo'lingan holatda o'tkazilmoqda. Masalan, birinchi o'quv nuqtasida xavfsizlik qoidalariga rioya etish bo'yicha tushunchalar berildi. Ikkinchi o'quv nuqtada o'q otish mashqi, qurollarni qismlarga ajratish va yig'ish bo'yicha me'yorlarning bajarish tartibi mashg'ulot rahbari tomonidan shaxsan ko'rsatib berildi. Qurollarni noto'liq qismlarga ajratish va yig'ish bo'yicha amaliy mashg'ulot o'tkazildi va sinovlar olindi.

Uchinchi o'quv nuqtada o'q otish mashg'ulotlari amalda bajarildi. Bunda nishonlarni kuzatuv bilan razvedka qilish, o't ochishni boshqarish, qurol bilan bajariladigan amaliy harakatlar o'zlashtirildi. To'rtinchi o'quv nuqtada ommaviy tartibsizliklarning oldini olish va bartaraf etishga jalb qilinadigan xodimlarning maxsus vositalari



bilan saf usullarini bajarish tartibi sinovdan o'tkazildi.

Muxtasar aytganda, rivojlangan davlatlarning jamoat xavfsizligini saqlashdagi ilg'or tajribalari va patrul-post xizmatining ish uslublari muntazam o'rganib borilayotgani

xodimlarning bilim va salohiyatini oshirish, jismoniy hamda jangovar shayligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

**Abduvosit SIDIQOV,**  
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



## Fotoreportaj

## KO'ZIM QABOG'IDA ASRAY VATANNI!



(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Qorovul qo'shinlariga qarashli podpolkovnik G'ayrat Bazarbayev komandirlik qilayotgan 7531-harbiy qismda navbatdagi «Vatanga qasamyod» tadbiri bo'lib o'tdi. Unda yosh askarlar Vatanga, xalqiga, Prezidentiga sodiq bo'lishga barchaning oldida ont ichib, tantanali qasamyod qabul qildilar. Tadbirda askarlarning ota-onalari hamda yaqinlari mehmon sifatida ishtirok etib, yurt osoyishtaligi yo'lida xizmat qilishga bel bog'lagan o'g'lonlarga o'zlarining samimiy tilaklarini bildirdilar.

Abu KENJAYEV,  
fotomuxbir.



## Mahalla tinch – yurt tinch

## «QIZIL» DAN «YASHIL» GA

«Farovon» mahallasi markazdan 60 kilometr uzoqlikda. Dehqonobod tumanining tog'li hududida joylashgan. O'tgan besh yil davomida mahalla kriminogen vaziyati og'ir, murakkab hududlardan biri sifatida «qizil» toifada edi. Ammo bu yil u aprel oyidan boshlab «yashil toifa»dagilar qatoriga o'tdi.

Xo'sh, bu muvaffaqiyatga qanday erishildi?

– Eng avvalo, aniq reja va tizimli yondashuv uchun alohida «Yo'l xaritasi» ishlab chiqildi. Mahallaga birlashtirilgan ichki ishlar boshqarmasi rahbarlari va mas'ullar tomonidan har bir xonadon o'rganildi. Har qaysi fuqaro bilan suhbatlashilib, dard-u tashvishlar tinglandi. Aniqlangan muammolar bo'yicha manzilli va maqsadli ish olib borildi. Ikkinchidan, muqaddam sodir etilgan jami 9 ta – o'g'rilik va bezorilik, tan jarohati va kiberjinoyatlar mahalla yetiligi va birlashtirilgan mas'ullar ishtirokida muhokama qilindi. Kelgusida bunday jinoyatlarning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgiladik, – deydi tuman IIB JXX HPB profilaktika inspektori, katta leytenant Uyg'un Abdulayev. – Muqaddam sudlangan 3 nafar shaxsning ham ijtimoiy ahvoli o'rganilib, muammolari hal



etildi va ular tomonidan qayta jinoyat sodir etishining oldi olindi.

Bulardan-da muhim jihatga jiddiy nazar solindi. Ya'ni aholining daromad manbayini shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratildi. Mahalla fuqarolari – Nargiza Alimova, Nargiza Mansurova, Shohida Yusupova

va Amirxol Amirova tashabbuslari bilan kichik ishlab chiqarish sexini tashkil etishdi. Ularga kredit olishda yordam ko'rsatildi. Natijada birgina sexda 10 nafardan ziyod ayol ishlay boshladi. «Yoshlar daftari»ga kiritilgan Bobur Soatov va To'ychi Boynazarovlarning 200 million

so'mlik kredit olib chorva sotib olishgani sababli, ularga 6 nafar yosh ishchi bo'lib yollanishdi.

– Nizoli va notinch oilalar bilan profilaktik ishlar kuchaytirildi, – deydi «Farovon» mahallasi raisi Ilhom Toshboyev. – Muntazam ravishda spirtli ichimlik iste'mol qilib, oilaviy janjallarga sabab bo'layotgan ayrim oilalar bilan tizimli ishlash natijasida mazkur oilalardagi muhit va munosabatlar yaxshilandi.

Bugun zamonaviy kuzatuv kameralarisiz xavfsizlikni to'liq ta'minlab bo'lmaydi. Shu bois mahallaga kirib-chiqish joylariga jami 20 ta kamera va tungi yoritish chiroqlari o'rnatildi. Videokameralarning 3 tasi 360 gradusli PTZ, 5 tasi raqamni ro'yxatga oluvchi va 5 tasi yuzni tanib oluvchi zamonaviy kameralar hisoblanadi. Shuningdek, to'sinlarga bir nechta tashvish va SOS tugmalari o'rnatilib, situatsion markazga hamda «Qalqon» dasturiga integratsiya qilindi.

Sodiq RAHIMOV,  
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

Umidli yoshlar

## ORZULARI BISYOR

**2002-yilda Ishtixon tumanida tugʻilib voyaga yetgan Zikirxon Tolibxonovga otasi bolaligidanoq, Vatanga xizmat qilish – eng oliy burch, deb taʼkidlardir. Bu soʻzlar Zikirxonning dilida mustahkam oʻrnashib, uning hayot yoʻlini belgilab berdi. IIV Samarqand akademik litseyini tamomlab, IIV akademiyasiga oʻqishga kirdi. 2024-yilda taʼlim muassasasini tamomlagach, hozirgi kunda Oqdaryo tumanidagi Zahiriddin Muhammad Bobur mahallasida profilaktika inspektori lavozimida xizmat olib borayapti.**

Zikirxon ilm olishga ishtiyoqmand, yangiliklardan boxabar boʻlishni, oʻz ustida ishlashni kanda qilmaydi. 2024-yildan Toshkent Axborot texnologiyalari universitetining kibernetika yoʻnalishi boʻyicha sirtqi taʼlim tinglovchisi. U axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarni fosh etish borasida dasturlar yaratishga qiziqadi. Bu yoʻnalishda viruslardan himoya qiluvchi oʻz loyihalarini yaratmoqda. Jahon adabiyoti mutolaasini kanda qilmaydi.

– Dostoyevskiy, Chexov, Mopassan, Shekspir asarlarini mutolaa qilish orqali inson ruhiyatini, hayotning murakkab jihatlarini yanada teran anglab borayapman. Bu esa xizmat faoliyatimda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Dostoyevskiy asarlaridagi inson qalbining ichki



kurashlari yoki Chexov hikoyalari-dagi oddiy inson taqdiri kitobxonni har bir holatga befarq boʻlmaslikka oʻrgatadi. Shekspir dramalari esa adolat, vijdon va insoniylik kabi tushunchalarni yanada mustahkamlaydi, – deydi leytenant Z. Tolibxonov. – Bilaman, ichki ishlar organlaridagi

xizmat oson emas. Masʼuliyatli vazifalarni bajarish, insonlar taqdiri bilan bogʻliq qarorlar qabul qilish, bularning barchasi bilim, ziyraklik va kuchli iroda talab qiladi.

– Mahallamiz tinch, odamlar bexavotir, emin-erkin yashashyapti. Albatta bunda profilaktika inspektorining xizmati katta. Ayniqsa, tarbiyasida muammosi bor yoshlar bilan ishlashga alohida eʼtibor beryapti. Chunki har bir yosh taqdiri ortida butun bir oilaning, jamiyatning kelajagi turganini inspektorimiz yaxshi biladi. U odamlar dardini eshitadi, notinch, nizoli oilalar bilan ishlaydi. Spirtli ichimlik taʼsiriga tushgan shaxslar bilan profilaktik suhbatlar oʻtkazadi, – deydi MFY raisi Aziza Umarova.

Yosh xodimning orzulari bisyor. U kelajakda oʻz sohasida yetuk mutaxassis boʻlib, yurtimiz ravnaqiga hissa qoʻshishni maqsad qilgan. Shu bilan birga, u yoshlarga namuna boʻlishni, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni istaydi.

**Umida MAMADALIYEVA,**  
oʻz muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

Tergovni bilimdonlar olib boradi

## USTOZLARGA ERGASHIB...

**Tergovchilik kasbi xodimdan har tomonlama yuksak bilim, sinchkovlik, xolislik va adolatni talab etadi. Fargʻona viloyati IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi katta tergovchisi, kapitan Iftixorjon Ibrohimov ham ustozlarga ergashib, koʻplab yutuqlarga sazovor boʻlayotgan yosh va fidoyi xodimlardan biri sanaladi.**

– Qoʻqon shahar IIBda amaliyot oʻtaganimda, mayor Qahramonjon Xolmatov ustozlik qilgan edi. Ayni paytda tergov boshqarmasida podpolkovniklar – Ahrorjon Ahmedov, Sarvar Turdiyev kabi tajribali ustozlar bilan birga ishlash jarayonida ulardan haqiqiy tergovchiga xos fazilatlarini, insoniylik va halollikni oʻrganyapman. Ularga mingdan-ming rahmat. Nima maslahat soʻrab xonalariga kirsam, erinmay tushuntirishadi, zarur tavsiyalar berishadi, – deydi u.

Lavhamiz qahramoni sohaga boʻlgan qiziqishi bolalikda shakllangan. Otasi Ibrohimjon Madaliyev ham koʻp yillar davomida ichki ishlar organlarida xizmat qilib, 2010-yilda Uchkoʻprik tumani IIBdan ehtirom bilan pensiyaga chiqqan. U qaysi lavozimda faoliyat olib borgan boʻlsa ham, adolat tamoyillariga sodiqligi bilan el hurmatiga sazovor boʻlgan, oʻnlab shogirdlarga ustozlik qilgan

fidoyi inson ekanligini koʻpchilik eʼtirof etadi.

Otasining qatʼiyati, Vatanga boʻlgan muhabbati va kasbga sadoqati yosh yigit uchun haqiqiy ibrat maktabi boʻldi. Bolaligidanoq adolatni qaror toptirish, haqiqatni izlash va inson huquqlarini himoya qilish kabi yuksak qadriyatlarini qalbiga singdirib ulgʻaydi. Shu orzular uni Ichki ishlar vazirligi Akademiyasiga yetakladi.

2016–2019-yillar davomida Akademiyada tahsil olish jarayonida na faqat nazariy bilimlarni, balki amaliy koʻnikmalarni ham puxta egalladi. Malakali ustozlardan olgan saboqlari, hayotiy maslahatlari mohir tergovchi boʻlib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Kapitan Iftixorjon Ibrohimov sharaflari sohada ishlash bilan birga, baxtli oila bunyod etmoqda. Turmush oʻrtogʻi va ikki nafar farzandi uning boyligi sanaladi. Ota-ona duosi esa



yoʻllarini mudom yoritib keladi.

Yosh tergovchining oldida hali koʻp sinovlar va yutuqlar kutmoqda. Biroq uning qatʼiyati, bilimga chanqoqligi va ustozlariga boʻlgan

hurmati kelajakda yanada yetuk mutaxassis boʻlib yetishishiga zamin yaratadi.

**Abduvosit SIDIQOV,**  
oʻz muxbirimiz.

Fargʻona viloyati.

## Ветераны — наша гордость

## ОФИЦЕРСКИЙ ХАРАКТЕР, УЧИТЕЛЬСКОЕ СЕРДЦЕ

Архивные фотографии обладают удивительной силой: порой они говорят больше, чем десятки страниц. На одном из таких снимков мы видим группу офицеров. Слева, за столом, — молодая, сосредоточенная женщина, Дилдора Закирова. Сегодня подполковник в отставке, она продолжает свою трудовую деятельность, доказывая: накопленный опыт и педагогический талант — ценности, которые не уходят в запас.

Решение служить в органах внутренних дел для Дилдоры не было случайным. Она стала продолжательницей дела отца — Сабита Закирова, человека железной выдержки, многие годы отдавшего системе исполнения наказания. Его пример научил героиню очерка главному: ответственность, самодисциплина и трудолюбие — это не просто слова, а образ жизни.

Служебная биография Д. Закировой в системе ОВД началась в 1997 году с вольнонаемной должности. В 2001 году она была аттестована и начала путь офицера. Работала психологом УИН, сотрудником отдела кадров. На посту заместителя начальника

учреждения по работе с личным составом в Зангиатинском районе она проявила себя как волевой и справедливый руководитель.

В 2013 году в жизни Д. Закировой началась новая глава — педагогическая. Она перешла в Академию МВД Узбекистана, где трудилась преподавателем, а затем старшим преподавателем кафедры языков. Коллеги и курсанты вспоминают ее как наставника, который понимал: для сотрудника органов правопорядка владение словом так же важно, как и знание закона. В процессе обучения Дилдора Сабитовна активно применяла интерактивные методы. Особое

внимание уделяла межпредметным связям, внедряя в языковую подготовку терминологию из профильных дисциплин: конституционного, уголовного и процессуального права.

В 2021 году подполковник Д. Закирова вышла на заслуженный отдых. Но для человека с кипучей энергией «отдых» стал лишь коротким перерывом. С того же года по настоящее время она посвящает себя детям, работая учителем русского языка и литературы в школе №331 Янгихаётского района Ташкента.

— Дилдора Сабитовна — опытный педагог, — отмечает директор школы Жамила Синдарова. — Она председатель методобъединения. Ее знания и умение вдохновлять коллег помогают повышать планку образовательных стандартов.

Труд учителя — это тоже служба, только на образовательном поприще. И подполковник в отставке Дилдора Закирова продолжает эту службу с достоинством, воспитывая в молодом поколении высокие нравственные качества.

Радик ТУМΠΑРОВ,  
соб. корр.



Фото из архива.

## Безопасная среда

## ПРОФИЛАКТИКА НА ОПЕРЕЖЕНИЕ

В Ташкенте активно внедряется многоуровневая система профилактики правонарушений, известная как «столичный опыт». Ее главная цель — не просто борьба с последствиями, а раннее предупреждение противоправных деяний.

В махалле Хонтупи Чиланзарского района в домах частного сектора проживает свыше 4,4 тысячи человек. Здесь функционируют три общеобразовательные школы, объекты социального назначения, торговые точки. Локация входит в зону ответственности ОВД № 1 УКД ОВД района. Инспектором профилактики является старший лейтенант Бекзод Бозаров.

— Системная работа дает результаты, — говорит он. — Наша махалля включена в число «зеленых», поскольку в течение двух последних лет не допущено совершения ни одного преступления.

Для достижения устойчивого результата инспектор действует во взаимодействии с «махаллинской семеркой», внедряя модель, основанную на изучении и устранении криминогенных факторов, адресной профилактике и создании технологического барьера.

— В ходе совместных обходов 450 домохозяйств выявили лиц группы риска и локализовали потенциальные «очаги преступности», — продолжает Б. Бозаров. — В отношении граждан, склонных к антиобщественному поведению, и подучетных группы пробации принимаются меры



индивидуального воздействия. Важный аспект — профилактика среди несовершеннолетних и молодежи. Параллельно территория оснащается интеллектуальными видеокамерами: только за истекший период года сверх уже имеющихся систем установлено 28 современных устройств. К укреплению правопорядка привлекаются курсанты Академии

МВД. Работа в жилых массивах под руководством старших коллег становится для них школой профессионального становления. Это важный элемент дуального образования, предусматривающего интеграцию теоретического обучения с основательной практической подготовкой непосредственно на местах.

Соб. корр.

## Спорт

## СЕРЕБРО, ЗОЛОТО И УПОРСТВО

Младший сержант Дарья Латышева — сотрудница органов внутренних дел и спортсменка ФСО «Динамо», чья жизнь с раннего детства была связана с движением, стремлением к развитию и победам.

В детстве она занималась танцами, плаванием, однако судьбоносной стала случайная встреча. В девятилетнем возрасте рядом с домом она заметила спортивный клуб, где проходили тренировки по ушу, и решила записаться.

Этот вид спорта привлек Дарью своей многогранностью: здесь есть и растяжка, и акробатические прыжки, и техника ударов руками и ногами, работа с оружием, а также эстетика движений. На фоне этого разнообразия другие виды спорта показались ей менее интересными.

Сегодня она тренируется под руководством Ирины Сухоруковой — тренера сборной команды. Значительную часть подготовки составляют учебно-тренировочные сборы, в том числе с участием китайских специалистов, что позволяет постоянно совершенствовать мастерство.

Наиболее близким для Дарьи направлением стал стиль наньцюань (южный кулак), которым она занимается с 2014 года. Этот стиль она описывает как мощный, взрывной и динамичный, отражающий силу характера и внутреннюю энергию спортсмена.

Международный дебют Дарьи состоялся в 2014 году. В 2015 году на чемпионате Азии среди юниоров она взяла первое место. Также золото было взято и на чемпионате мира в 2016 году, в 2017 году на чемпионате Азии. Уже через год она громко заявила о себе, завоевав серебряную медаль Азиатских игр 2018 года в комбинированной программе наньцюань и наньдао. Этот успех стал особенно значимым: еще в 2017 году она выступала среди юниоров, а уже в 2018 году вышла на взрослый уровень — сразу на одном из самых престижных турниров континента.

В 2019 году она завоевала бронзовую медаль чемпионата мира в дисциплине наньдао. После паузы, связанной с пандемией, Дарья вновь подтвердила свой высокий уровень: на Всемирных играх 2022 года она стала серебряным призером в комбинированной программе наньцюань и наньдао.

Следующие годы принесли новые достижения. В 2023 году она завоевала серебро на Всемирных университетских играх, бронзу Азиатских игр и золотую медаль Всемирных игр боевых искусств. В 2024 году Дарья успешно выступила на международном пригласительном турнире, где взяла два золота (наньцюань и наньдао) и бронзу в наньгун, а также стала двукратной медалисткой чемпионата Азии. Позже она добавила серебряную медаль Всемирных игр 2024 года и в 2025 году стала победительницей Кубка Азии Таолу в дисциплине наньдао.

После Азиатских игр Дарье предложили службу в Национальной гвардии, где прослужила несколько лет, а затем была переведена в систему МВД. Она отмечает, что успешно совмещать службу и спорт помогает поддержка руководства, за что она искренне благодарна.

Представлять Узбекистан на международной арене для нее — большая честь и ответственность. Это не только личное выступление, но и вклад в престиж страны.

В жизни ее поддерживают близкие — прежде всего мама, тренер и друзья. Вне спорта и службы Дарья стремится к развитию: изучает английский язык, читает книги. Она любит активный отдых — сноуборд, походы, а также ценит время, проведенное с родными.

Юлия МУСТАФАЕВА,  
соб. корр.



## Chilonzor tajribasi

# XAVFSIZ MUHIT SARI AMALIY QADAMLAR

**J**amoat xavfsizligini ta'minlash, fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish davlatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayni shu maqsadda Toshkent shahrining Chilonzor tumanida xavfsiz muhit yaratishga qaratilgan «Poytaxt namunasi» loyihasi doirasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda va hozirda ushbu sa'y-harakatlar o'z natijasini ko'rsatmoqda.

– Fuqarolar mulkini daxlsiz saqlash maqsadida olib borilgan tizimli ishlar natijasida hududdagi 3874 ta savdo va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarining 2570 tasi zamonaviy qo'riqlash tizimlari bilan to'liq qamrab olindi. Bu nafaqat tadbirkorlik subyektlarining xavfsizligini kafolatlaydi, balki sodir etilishi mumkin bo'lgan turli qonunbuzarliklarning oldini olishda ham muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda, – deydi tuman IIOFMB huzuridagi Qo'riqlash xizmati boshlig'i, podpolkovnik Baxtiyor Yuldashev.

Misol uchun, Namangan viloyatida yashovchi, voyaga yetmagan qiz V.X. uyidan chiqib ketib, bedarak yo'qolgan. Ota-onasining murojaati asosida olib borilgan tezkor qidiruv va surishtiruv ishlari natijasida qizaloqning Toshkent shahrida ekanligi aniqlandi. Uni sog'-omon topishda va oilasi bag'riga qaytarishda IIV huzuridagi Qo'riqlash departamenti navbatchisi, podpolkovnik Mirali Isametov, Chilonzor

tumani huzuridagi Qo'riqlash xizmati dispetcheri, safdor Doniyorbek Gamletov hamda tezkor harakatlanuvchi guruh xodimlari – katta serjant Farrux Alimov, serjant Eldor Amirov va safdor Abdurashid Abduxoliqovlarning xizmatlari alohida e'tirofga loyiq.



Tumandagi 1236 ta ko'p qavatli uyning 552 tasi qo'riqlash xizmati nazoratida bo'lib, mavjud 74053 ta xonadondan 9628 tasida xavfsizlik tizimlari uzluksiz ishlab turibdi. Shuningdek, sektorlar kesimida olib borilgan targ'ibot ishlari natijasida 9542 ta hovli uyni 556 tasi ham qo'riqlovga olindi.

Tumanda qo'riqlash qamrovini oshirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar o'z mevasini bermoqda. Barcha sa'y-harakatlar nafaqat texnik vositalar, balki aholi o'rtasidagi yuqori darajadagi huquqiy targ'ibot bilan ham hamohang olib borilmoqda.

Huquqiy targ'ibot olib borish natijasida esa joriy yilning o'zida mahallalarda 10793 ta targ'ibot-profilaktika tadbirlari tashkil etildi.

Quvonarlisi, ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarning ko'lami yil sayin kengayib bormoqda. Joriy yil davomida qo'shimcha tezkor harakatlanuvchi guruh tashkil etilib, xizmat sifati yangi bosqichga olib chiqildi. Yil boshidan buyon yana 505 ta tadbirkorlik subyekti, 279 ta ko'p qavatli uylar yo'lagi hamda 7169 ta xonadon, jumladan, 387 ta hovli uylar qo'riqlovga olindi.

Bu kabi izchil sa'y-harakatlarning tag zamirida har bir fuqaroning o'z uyi va ish joyida xotirjamligini, hududning osoyishtaligini ta'minlash yotibdi. Ayniqsa, ko'p qavatli uylar yo'laklariga hamda fuqarolar xonadoniga «tashvish tugmalari»ni o'rnatish ishlari izchil davom ettirilmoqda. Tizimning naqadar zarurligini shu yilning o'zida kelib tushgan va tezkorlik bilan bartaraf etilgan 1578 ta tashvish xabarlar ham yaqqol tasdiqlaydi. Mazkur tugmalar orqali favqulodda holatlarda tezkor harakatlanuvchi guruh xodimlari zudlik bilan yetib kelib, huquqbuzarliklar hamda jinoyatlarning barvaqt oldini olmoqda.

**Kamila ORAZTAYEVA,**  
podpolkovnik.  
**Sarvar SOBIROV,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

## Insonparvarlik

## XATO QILMOQLIK BORDIR...

– Jinoyatga qo‘l urganim sababli menga nisbatan sud tomonidan ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlangan edi. Keyin qilmishimdan astoydil pushaymon bo‘ldim, lekin vaqtni orqaga qaytarib bo‘lmas ekan. Jazoni o‘tash davrida ozodlik degan ne‘matning qanchalik qadri, bebaho ekanligini tushunib yetdim. Muhtaram Prezidentimizning farmo-niga muvofiq, bir qancha mahkumlar qatori meni ham kechirishdi. Probatsiya xodimlari holimdan xabar olib, tibbiy ko‘rikdan o‘tishga, shuningdek «Ruslan Kommunal» MCHJga ishga joylashishimga ya-

qindan yordam berishdi. Bundan buyon halol mehnatim bilan el-yurtimga naf keltirishni niyat qilganman, – deydi qoraqalpog‘istonlik afv etilganlardan biri.

– Mamlakatimiz Prezidentining 2026-yil 19-martdagi farmoniga muvofiq, Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha jami 12 nafar shaxs afv qilingan edi. Ulardan 3 nafari jazoni ijro etish muassasasidan ozod etildi. Bir nafarining ozodlikdan mahrum etish jazosi esa yengilroq jazo turiga almashtirilib, probatsiya hisobiga olindi. Shuningdek, probatsiya hisobidagi jazo o‘tayotgan



8 nafar shaxs jazodan to‘liq ozod etildi. Ushbu shaxslarning barchasiga har tomonlama yordam berilyapti, jamoatchilik vakillaridan murabbiylar biriktirilgan, – deydi Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV JXX Probatsiya bo‘limi boshlig‘i, podpolkovnik Bahram Ubbiniyazov.

Ha, kishining hayotda bilib-bilmay adashishi, xato qilishi bor gap. Eng asosiysi, uning o‘z qilmishidan to‘g‘ri xulosa chiqarib, qat‘iy tuzalish yo‘liga o‘tishidir. Bundaylarni afv etish insonparvarlik, kechirimlilik, bag‘rikenglikdan

nishona. Davlatimiz rahbarining yuqorida zikr etilgan farmonida bu fazilatlar o‘zining yorqin ifodasini topdi. Endigi vazifa afv etilganlarga jamiyatda o‘z o‘rinini topishida ko‘maklashishdan iborat. O‘zingiz guvohi bo‘lganingizdek, ayni paytda Qoraqalpog‘iston Respublikasida bu borada bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

**Baxadir NURJANOV,**  
mayor.  
**Azamat PIRNIYAZOV,**  
o‘z muxbirimiz.

*Qoraqalpog‘iston Respublikasi.*



## Kasbim bilan faxrlanaman

## IBRATGA LOYIQ XODIM

**Buxoro viloyati IIB JXX YHXB Yo‘l infratuzilmasini nazorat qilish bo‘limi katta muhandisi, kapitan Abdulla Jalolovni barcha birdek hurmat qiladi. Bu sharafta o‘z vazifasini sidqidildan bajarishi, yo‘llarda xavfsiz harakatlanishni ta‘minlashda ko‘zga ko‘rinarli yutuqlarni qo‘lga kiritishi tufayli erishib kelmoqda.**

Shofirkon tumani Mingon qishlog‘ida tug‘ilgan Abdulla Toshkent avtomobil yo‘llari institutini tugatib, bir muddat viloyat IIB JXX YHXB 2-safarbarlik guruhi inspektori lavozimida ishladi. 2019–2020-yillar IIV Akademiyasi kasbiy tayyorgarlik fakultetida tahsil oldi. Shundan buyon egallab turgan lavozimida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Sohada tajribali xodim bo‘lishida otasi Alisher Hamroyev, ustozlari – mayor Ravshan Bayozov, podpolkovniklar Feruz Avezov, G‘ayrat Qilichev, iste‘fodagi podpolkovnik Ulug‘bek O‘rinovlarning hissasi katta.

– Yo‘llarning holatini yaxshilash, harakat xavfsizligini ta‘minlash maqsadida viloyat IIB JXX YHXB va yo‘l-



kommunal korxonalar bilan hamkorlikda o‘tgan yil davomida viloyat hududidagi 1200 km yo‘l ta‘mirlandi, – deydi u. – Yana 48 km masofada piyoda va velosiped yo‘laklari qurildi. Bundan tashqari, xalqaro moliya institutining mablag‘lari hisobidan 54 km ichki yo‘llar sement-beton qoplama bilan qayta qurildi, 22 ta ko‘prikda esa rekonstruksiya va ta‘mirlash ishlari amalga oshirildi. Shu bilan birga, Buxoro shahar hamda

Kogon tumanida 13 dona zamonaviy yer osti va yer usti piyodalar o‘tish yo‘laklarida qurilish-montaj ishlari olib borilmoqda.

Shuningdek, 27 ta svetofor, maktab va maktabgacha ta‘lim muassasalari oldida hamda ularga olib boruvchi yo‘llarda 256 ta baland piyodalar o‘tish joylari, 475 ta yo‘l sun‘iy notekisliklari, 8,7 km masofada qatnov qismi o‘rtasiga metall panjaralar o‘rnatildi.

Shahar-tuman markazlarida yuzaga kelayotgan tirbandliklarning oldini olish uchun 2 ta yer osti piyodalar o‘tish joylari foydalanishga topshirildi. Harakat ishtirokchilarining xavfsiz harakatlanishini ta‘minlash maqsadida Jondor, Peshku, Kogon, Qorovulbozor, Romitan tumanlari hamda Buxoro shahridan o‘tuvchi avtomobil yo‘llarining 65 km masofadagi qatnov qismi 1-guruh muhofaza to‘siqlari bilan ikkiga ajratildi, 16 km masofada aholi punktlari va piyodalar o‘tish joylari yoritish chiroqlari bilan jihozlandi. Qolaversa, «Xavfsiz shahar» hamda tadbirkorlar tomonidan raqamlashtirish sohasida ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib, yo‘llarda va chorrahalarda 56 ta foto va video qayd etish dasturiy texnik vositalari o‘rnatildi.

Lavhamiz qahramoni 2024-yili IIV tashabbusi bilan jahon tajribalarini o‘rganish maqsadida Xitoy Xalq Respublikasida bo‘lib, sertifikat olib qaytdi. Turmush o‘rtog‘i Shahlo Qo‘ziyeva Buxoro tibbiyot institutida o‘qituvchi bo‘lib ishlaydi. Ular farzandi Timurbekning tarbiyasiga ham e‘tiborli.

Qisqasi, kapitan Abdulla Jalolov jamoasida ham, oilasida ham o‘z o‘rniga ega. Shu bois hamisha hurmat-e‘tiborga munosib bo‘lib qoladi.

**Mirzoqul AHADOV,**  
o‘z muxbirimiz.

*Buxoro viloyati.*

Joy nomlari – qadriyat timsoli

## CHINDOVUL SINOATI

**H**ar bir joy nomi tariximizning ochilmagan sahifasi, ajdodlarimizdan qolgan o'ziga xos merosdir. Bugun biz Namangan viloyatining Kosonsoy tumani-dagi qadimiy maskanlardan biri — Chindovul oykonimi ortida qanday sirlar yashiringani haqida so'z yuritamiz.

### ATAMANING LUG'AVIY MA'NOSI

Tadqiqotlarga ko'ra, joy nomining kelib chiqishi borasida olimlar va mahalliy aholi o'rtasida bir nechta qarashlar mavjud. Birinchi faraz: O'rta Osiyo xonliklarida lashkar otryadini orqadan qo'riqlovchi maxsus askar yoki qo'shinning eng orqadagi qismi shunday atalgan.

Tarixchi olimlar Alisher Navoiy asarlariga tayanib, – vul qo'shimchasi (masalan: hirovul, qorovul, yasovul, bakovul) harbiy va saroy xodimlarini bildirganini ta'kidlaydilar. Shu munosabat bilan, Chindovul — «qo'shinning eng orqadagi qismi» degan ma'noni anglatishi mumkin.

Yana bir manbaga ko'ra, chindovul o'zbek va tojik xalqlarida dubulg'a shaklidagi, bir tomonidan teri bilan qoplangan urma cholg'u asbobi. Harbiy yurishlar va turli marosimlarda qo'llangan. Chindovul otliq askar egariga boylangan, tayoq yoki qamchi dastasi bilan chalingan.

### «GUL TERMOQ» RIVOYATI

Mahalliy aholi orasida bu nom tojikcha «chin» (termoq) so'zidan olingan bo'lib, «gul termoq» degan ma'noni bildiradi, degan qarash bor. Biroq tilshunos olim T. No'monov bu fikrni rad etadi, chunki hududning tarixiy shakllanishida bu ma'no o'z isbotini topmagan.

### «QIRQ OVUL» AFSONASI

Rivoyat qilinishicha, Shoh Jalil ismli shaxs Kosonsoyga borganida uni shaharga kiritishmagan. U o'z karvoni bilan hozirgi Chindovul hududiga kelgan va bu yerda 40 ta ovul (chil ovul) tikib yashagan.

Zamonaviy onomastika (joy nomlarini o'rganish fani) quyidagi talqinni eng ishonchli deb hisoblaydi:

### CHINDOVUL = CHIN (XITOIY ETNONIMI) + OVUL (TURARJOY)

Bu yerda «Xitoy qishlog'i» ma'nosi yashiringan. Til taraqqiyoti davomida «Chin-ovul» birikmasi orasiga «d» undoshi orttirilgan va yaxlit bir nomga aylangan.


### BUNI NIMA ISBOTLAYDI?

Qishloq yaqinidan oqib o'tuvchi Xitoysoy gidronimi (suv nomi) mavjudligi bu ilmiy qarashning naqadar to'g'ri ekanligini tasdiqlovchi asosiy dalildir.

Maqolani tayyorlashda tarixiy manbalar va T. No'monovning tadqiqotlaridan foydalanildi.

**Jahongir TO'XTASINOV,**  
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.



Ham kuldirib, ham kuydirib...



## Ma'naviyat va ma'rifat darsi

MUROJAATLAR BILAN  
ISHLASH MADANIYATI

**«Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak» tamoyilining hayotga to'liq tatbiq etilishida aholi murojaatlarining ahamiyati beqiyos. Shu bois jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash masalasi har bir davlat idorasining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ichki ishlar vazirligi tizimida ham bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan.**

2026-yil 13-mart kuni Prezidentimiz rahbarligida Xalq murojaatlari bilan ishlash tizimini yangi darajaga ko'tarish va jamoatchilik fikrini chuqur tahlil qilish to'g'risida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida murojaatlar bilan ishlash yo'nalishida Ichki ishlar vazirligining namunasini yaratish bo'yicha topshiriq berilgan edi.

Shunga ko'ra, Vazirlik rahbariyati, tarkibiy va hududiy bo'linmalar rahbarlari tomonidan aholi bilan ochiq muloqot qilish, ularni shaxsan qabul qilib, muammolarini eshitishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

So'nggi bir yilda aholini qiynayotgan muammolarni o'rganish, ularga yechim topish maqsadida har oyning so'nggi yakshanba kunlari fuqarolar birinchi rahbarlar tomonidan shaxsan qabul qilinib, ular bilan ochiq muloqot o'tkazilmoqda.

**Aynan vazirlikda bir yil davomida o'tkazilgan 11 ta qabulda 6 641 nafar fuqaro bilan ochiq muloqot qilindi. Jumladan, 2025-yilda 5 391 nafar, 2026-yilning o'tgan davrida 1 250 nafar fuqaro qabul qilindi.**

**Fuqarolar o'z murojaatlarida asosan surishtiruv va tergov jarayonlarida yuzaga kelgan muammolar (1 642 ta), ichki ishlar organlari xizmatiga qayta**

**tiklanish (1 425 ta), tergovga qadar tekshiruvga oid (618 ta) hamda afv va mahkumlarning huquqiy holatiga doir masalalar (240 ta) yuzasidan murojaat qilgan.**

Shuningdek, haftaning belgilangan kunlari tergov, huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo'l harakati xavfsizligi, kadrlar bilan ishlash masalalari bo'yicha vazir o'rinbosarlari tomonidan shaxsiy qabullar o'tkazib kelinmoqda. Bu qabullar jarayonida 5 711 nafar fuqaro bilan ochiq muloqot o'tkazilib, muammolar bo'yicha qonuniy choralar ko'rildi.

Shu bilan birga, hududiy ichki ishlar organlarining birinchi rahbarlari tomonidan ham aholi bilan doimiy ravishda kunlik shaxsiy hamda har haftaning yakshanba kuni ommaviy sayyor qabullar o'tkazib borilmoqda. Mazkur jarayonda 38 944 nafar fuqaro bilan ochiq muloqot o'tkazilib, muammolar bo'yicha qonuniy choralar ko'rilgan.

**Qayd etish kerak, 2025-yilda Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonaga Ichki ishlar vazirligi tizimi vakolatiga oid masalalar yuzasidan 89,4 ming nafar fuqarodan 148,2 mingta murojaat kelib tushgan bo'lsa, ularning 98 562 tasi yoki 70 foizida keltirilgan**



**vajlar bugungi kunda qanoatlanirildi.**

**Amalga oshirilgan tizimli chora-tadbirlar natijasida 2025-yilda Prezident virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan jami murojaat 2024-yilga nisbatan 32 734 taga yoki 25 foiz kamaydi.**

Murojaatlar bilan ishlashda muloqot madaniyatiga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Negaki, har bir fuqaroning fe'l-atvori va muomalasiga monand suhbatlashish, muammosi va tashvishlarini vazminlik bilan tinglash, savollariga odob bilan javob qaytarish ularning davlat idoralariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois har bir ichki ishlar idorasi xodimi qachon, qayerda, qanday vaziyatda bo'lishidan qat'i nazar, murojaat qilgan fuqaro bilan xushmuomala bo'lishi shart.

Joriy yil 1-apreldagi «Aholi bilan muloqot tizimini samarali tashkil qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Prezident farmoniga ko'ra, 1-maydan boshlab Virtual qabulxonaga kelib tushgan murojaatlar ustidan real vaqt rejimida nazorat o'rnatiladi. Belgilangan muddatdan kechikkan murojaatlar avtomatik ravishda yuqori turuvchi davlat organiga o'tkaziladi. Shuningdek, murojaatlar «shoshilinch», «oddiy» va «maslahat talab qiluvchi» toifalarga ajratiladi, nazoratga qaytarilgan murojaatlar esa 3 ish kuni ichida qayta ko'rib chiqiladi.

Farmonga muvofiq, davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining murojaatlar bilan ishlash bo'yicha hisobotlari har chorakda kamida bir marta parlament palatalarida eshutiladi. Hududlarda esa hokimlar va mahalliy idoralar rahbarlari hisobotlari tegishli kengashlarda mu-

hokama qilinadi. Axborot xizmatlari Xalq qabulxonalari bilan hamkorlikda murojaatlar bilan ishlash jarayonini yoritadi va ommaviy axborot vositalarida bildirilgan e'tirozlarni tahlil qilib boradi.


Shuningdek, farmon bilan Prezident Xalq qabulxonasi tashkil etilishi belgilandi. Unga Qoraqalpog'iston, viloyatlar, Toshkent shahri hamda tuman va shahar hokimlari jamoatchilik asosida rahbarlik qiladi va fuqarolarni muntazam qabul qilib, muammolarni joyida hal etish choralari ko'radi.

Bundan tashqari, vazirlik va idoralar rahbarlari tomonidan taqdimotlar jarayonida aholi murojaatlarida ko'tarilgan tizimli muammolar va ularning yechimi bo'yicha alohida hisobot berish tartibi joriy etiladi. Davlat organlari va hokimliklar tomonidan o'tkaziladigan shaxsiy hamda sayyor qabullar to'liq raqamlashtirilib, jarayon ustidan nazorat kuchaytiriladi.

Prezident virtual qabulxonasida murojaatlar real vaqtda nazorat qilinadi. OAV va ijtimoiy tarmoqlardagi e'tirozlar davlat organlari axborot xizmatlari samaradorligiga ta'sir qilishi qayd etildi.

Shu bois vazirlik axborot xizmati OAV va ijtimoiy tarmoqlarda murojaatlarni ko'rib chiqish yuzasidan bildirilgan e'tirozlarni doimiy o'rganib boradi. Chunki endi bu holat ular faoliyati samaradorligini baholashda ham inobatga olinadi.

**Ozodbek JO'RABOYEV,**  
IIV Murojaatlar bilan  
ishlash boshqarmasi boshlig'i,  
polkovnik.



Qoraqalpog'  
tilidagi matn.



Rus tilidagi  
matn.



# «MEN KUCHLI AYOLMAN»

## Navoiy viloyati



Keng ko'lamli «Men kuchli ayolman» profilaktik tadbiri davomida jinoyat va huquqbuzarlik qurboniga aylangan, oila-turmush doirasida jabr ko'rgan hamda ijtimoiy-huquqiy va psixologik qiyin vaziyatga tushib qolgan, tibbiy yordamga muhtoj xotin-qizlarga amaliy yordamlar ko'rsatilyapti.

Nizoli, ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalar holati mas'ullar ishtirokida ko'rib chiqildi. Jarayonda tuman hokimligi, Oila va xotin-qizlar bo'limi mutasaddilari, mahalla faollari ham-

da huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari qatnashdi. Muhokamalarda oilaviy kelishmovchiliklar sabablari tahlil qilinib, tomonlarga tushuntirishlar berildi. Asosiy e'tibor oilani saqlab qolish va farzandlar manfaatini himoya qilishga qaratildi. O'rganishlar davomida 2 ta oila yarastirildi, yana 4 ta oilaning esa muammolarini bartaraf etish choralari belgilab olindi.

**Gulbahor O'SAROVA,**  
podpolkovnik.



## Toshkent viloyati

«Biz qo'llab-quvvatlaymiz, ishonch bag'ishlaymiz» shiori ostida o'tkazilgan profilaktik tadbir doirasida oila-turmush munosabatlari sohasida huquqbuzarliklarning oldini olish,

o'tkazildi. Ommaviy axborot vositalari orqali aholi o'rtasida huquqiy ong va ogohlikni oshirishga qaratilgan targ'ibot ishlari amalga oshirildi. Bandlikni ta'minlash yo'nalishida o'tkazilgan yarmarkalar nati-



xotin-qizlarni ijtimoiy, huquqiy va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ishlar amalga oshirildi. Jami 276 nafar xotin-qizlar bilan manzilli ish tashkil etilib, ular tibbiy ko'rikdan o'tkazildi, psixologik qo'llab-quvvatlash ishlari olib borildi hamda huquqiy tushuntirishlar berildi.

Shuningdek, 46 ta davra suhbat, 18 ta seminar-trening, 12 ta ochiq muloqot tashkil etildi, haftalik sayyor qabullar

jasida ikki nafar ayol ishga joylashtirilgan bo'lsa, uch nafariga kasb-hunar o'rganishlari uchun yo'llanmalar berildi. Shuningdek, zo'ravonlik holatlari aniqlangan fuqarolarga nisbatan qonunchilikka muvofiq himoya choralari ko'rildi, ularga tibbiy, psixologik va huquqiy yordam ko'rsatildi.

**Abror POYONOV,**  
katta mutaxassis-muxbir,  
katta serjant.

## Soha fidoyilari

Joriy yilning 2-aprel kuni soat 16:07 da Qo'riqlash xizmatiga favqulodda xabar kelib tushdi. Unda bir fuqaro mast holatda qo'lida pichoq bilan begona xonadonga kirishga urinayotgani ma'lum qilingan.

Mazkur xabarga asosan Qo'riqlash xizmatining Bektemir tumanidagi Tezkor harakatlanuvchi guruh xodimlari kichik serjant Egamberdi Samatov, safdorlar Abdurahmon G'ayratov, Amirbek Savlatov voqea joyiga atigi 4 daqiqa ichida yetib borishdi. Holat o'rganilganda, fuqaro I.X. mast holatda atrofdagilarning tinchini buzib, o'zini pichoq bilan o'ldirishini aytib tahdid qilgan.

– Vaziyat juda qaltis edi. Har soniyada kutilmagan harakat sodir bo'lishi mumkin edi. Shu bois tezkorlik va ehtiyotkorlik bilan harakat qilishimizga to'g'ri keldi, – deydi safdor Ab-

## VAZIYAT QALTIS EDI...

**Bugungi kunda jamoat xavfsizligini ta'minlash, fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishini kafolatlashda Qo'riqlash xizmati xodimlarining o'rni beqiyos. Ular nafaqat mol-mulkni qo'riqlash, balki jinoyatlarning oldini olish va turli xavfli holatlarni bartaraf etishda ham faol ishtirok etib kelmoqda.**



durahmon G'ayratov. – Eng avvalo, vaziyatni yumshatishga harakat qildik. Fuqaroga yaxshi gapirib,

uni tinchlantirishga urindik. Shu bilan birga, uning har bir harakatini nazorat qilib bordik. Asosiy maqsadimiz – fuqaroga ham, atrofdagilarga ham zarar yetmasligini ta'minlash edi. Shuning uchun bir vaqtning

o'zida muloqotni davom ettirdik va xavfsizlik choralari kuchaytirdik. Qulay fursatdan ustalik bilan foydalanib, uni zararsizlantirishga muvaffaq bo'ldik. Bu jarayonda jamoaviy harakat, o'zaro tushunish va bir-birimizni qo'llab-quvvatlash hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi.

Shundan so'ng mazkur fuqaro belgilangan tartibda Bektemir tumani IIOFMBga topshirildi. Mazkur holat Qo'riqlash xizmati xodimlarining yuksak tayyorgarligi, tezkorligi va mas'uliyatini yana bir bor yaqqol namoyon etdi.

**Adolat FAYZIYEVA,**  
o'z muxbirimiz.  
Toshkent shahri.

## Side by side

### NAVOI REGION

Within the framework of the «I am a strong woman» preventive initiative held in Navoi region, practical assistance was provided to women in difficult situations, including those affected by crime and domestic violence.



Problematic families on the verge of divorce were reviewed with the participation of responsible authorities. Representatives of district administrations, the Department for family and women, community activists, and law enforcement agencies took part in the discussions. The causes of family conflicts were analyzed, and explanations were provided to the parties. The main focus was on preserving families and protecting the interests of children.

As a result, 2 families were reconciled, and measures were developed to resolve the issues of 4 other families.

### TASHKENT REGION

Within the framework of the event held under the slogan «We support, we inspire confidence», activities were carried out to provide social, legal, and psychological support to women.



Targeted work was conducted with 276 women, who underwent medical examinations and received necessary guidance.

Various events were also organized, and awareness campaigns were conducted among the population. As a result, 2 women were employed, and 3 were given referrals for vocational training. Appropriate assistance was provided in cases of violence.

### TASHKENT CITY

The role of the Guard Service employees in ensuring public safety is invaluable. They not only protect property but also actively prevent crimes and handle dangerous situations.

On April 2 at 16:07, an emergency report was received about a citizen, intoxicated and armed with a knife, attempting to enter a stranger's home. The Rapid Response Unit of Bektemir district – junior sergeant Egamberdi Samatov and guards Abdurahmon Gayratov and Amirbek Savlatov – arrived at the scene in just 4 minutes.



### BUKHARA REGION

Captain Abdulla Jalolov, senior engineer of the road infrastructure control Department at Bukhara regional Internal affairs Department, is widely respected. He has achieved notable successes in ensuring road safety.

Born in Mingon village, Shofirkon district, Abdulla graduated from the Tashkent automobile roads institute and began his service in the IAD. In 2019–2020, he studied at the Ministry of internal affairs Academy and gained valuable experience under the guidance of his father and mentors.

Under his leadership, 1 200 km of roads were repaired in the region, 48 km of pedestrian and bicycle lanes were built, 22 bridges were reconstructed, and 13 modern pedestrian crossings

## Exemplary employee



were installed. In city and district centers, 27 traffic lights, 256 elevated pedestrian crossings, 475 speed bumps, 8.7 km of protective barriers, and 56 photo/video recording devices were installed.

In 2024, he studied international best practices

in China and received a certificate. His spouse, Shahlo Qoziyeva, is a teacher, and they are attentive to raising their child, Timurbek.

In short, captain Abdulla Jalolov is a respected and exemplary figure both in his team and his family.

### JIZZAKH REGION

## Suvonobod – peaceful community

Nargiza (name changed) was exhausted by her husband's drinking. The local neighborhood prevention inspector placed him in a treatment center, and he gave up alcohol. Now the family lives in peace and happiness.

In Suvonobod neighborhood, no crimes have been recorded in 2025 or this year. Targeted work with youth, along with the «Youth register» and employment programs, has provided jobs for residents. Weekly prevention events and discussion sessions are held to raise legal awareness.

Special attention is paid to protecting young people from negative habits through sports and cultural activities. Security of homes and property has been strengthened with «alert buttons» and



the neighborhood security service. Twelve surveillance cameras and three face/license plate recognition cameras are connected to the regional Ministry of internal affairs «Qalqon» platform, and over 1 000 residents can contact the local prevention inspector

online via the «Mening inspektorim» bot.

Captain Shavkat Ibrohimov, the prevention inspector, notes that through five years of work, the neighborhood has achieved «green» status, and coordinated efforts will continue to maintain lasting safety and stability.

## The situation was critical...

At the incident, the officers managed to calm the individual, control his actions, and defuse the situation. Taking advantage of the opportunity, they neutralized the threat and ensured the safety of those nearby.

The individual was then handed over to the Bektemir district Department for coordination of Internal affairs activities according to procedure. The incident once again demonstrated the Guard Service staff's high level of preparedness and responsibility.

Translated by Munavvar RASHIDOVA, docent.

## Voleybol

Viloyat voleybol federatsiyasi tashabbusi bilan turli yosh toifalaridagi respublika chempionatlarini o'tkazish an'anasiga ko'ra, 15 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasidagi ushbu musobaqada mamlakatimizning barcha hududlaridan tashrif buyurgan 14 ta jamoaning iqtidorli yoshlari o'z mahoratini namoyon etib, har bir o'yinda g'alaba uchun kurashdilar.

O'yinlar «aylana» usulida tashkil etildi. Guruh bosqichida g'olib bo'lgan jamoalarga navbatdagi imkoniyat berilib, yakunda g'oliblikka da'vogar 4 ta jamoa maydonda yuzmayuz keldi. Kutilganidek, yarim final va final o'yinlari murosasiz kechdi. O'zbekiston chempionatidagi kuchli uchlikning quyi pog'onasidan Samarqand viloyati jamoasi joy oldi. Final o'yinida kuchli zarbalar berib, bir-birini yaxshi tushunib o'ynagan,

**Sport – bu faqat musobaqa emas, balki sog'lom turmush tarzi, intizom, vatanparvarlik va mamlakat nufuzini namoyon qiladigan katta kuch.**

**Shavkat MIRZIYOYEV**

# ANDIJON YOSHLARI TENGSIZ

**Jizzax shahri 4–8 aprel kunlari voleybol bo'yicha U-15 yosh toifasidagi O'zbekiston chempionatiga mezbonlik qildi.**

soniyalar ichida to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini ko'rsata olgan andijonlik yoshlar Surxondaryo jamoasini mardonavor yengib, o'yin taqdirini o'z foydalariga hal etishdi. U-15 yosh toifasida O'zbekiston chempioni degan faxrli nomga ega bo'lishning gashti boshqacha ekanligini his qilgan andijonliklarning quvonchi ichiga sig'maydi.

G'oliblarni taqdirlash marosimida viloyat voleybol federatsiyasi boshlig'i G'ayrat Qodirov so'zga chiqib, kuch, matonat va jamoaviylik orqali g'oliblikka erishgan yoshlarni muborakbod etdi. Bunday musobaqalarning o'tkazilishi voleybol sport turini



ommalashtirish, yoshlar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishda muhim o'rin tutishini ta'kidladi.

Darhaqiqat, mazkur chempionat yosh sportchilar va muxlislarga unutilmas lahzalarni taqdim etdi. U nafaqat sport bellashuvi, balki haqiqiy bayramga aylandi. Musobaqalar davomida hukmron bo'lgan do'stona muhit, jamoaviy ruh va o'zaro hurmat kabi

fazilatlar yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, Jizzax shahrida o'tkazilgan mazkur chempionat nafaqat g'oliblarni aniqlash, iqtidorli yoshlarni saralash, balki yoshlar qalbida sportga bo'lgan muhabbatni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Muqaddas SAPAROVA,**  
o'z muxbirimiz.  
Jizzax viloyati.

## Uyushmagan yoshlar

# KELAJAKKA E'TIBOR

**Peshku tumanida mahallalardagi yoshlar yetakchilari bilan birgalikda 32 ming 850 nafar yigit-qizning ro'yxati shakllantirilib, ular bilan individual ishlash tizimli ravishda davom ettirilmoqda.**



Xususan, Ichki ishlar, Mudofaa va Adliya boshqarmalari, O'zbekiston musulmonlari idorasining viloyat vakilligi bilan hamkorlikda «Vatanparvarlik va milliy qadriyat» hamda «Huquqiy bilimlar» mavzularida yoshlar bilan suhbat va o'quv seminar-treninglari, uyushmagan yoshlarning muzey, uy muzeylari, tarixiy obidalarga ekskursiyasi tashkil etildi.

Shu bilan birga, tumandagi umumta'lim maktablarida «Besh tashabbus olimpiadasi» doirasida o'tkazilgan viloyat chempionati kubogi musobaqalarida, 18 yosh toifasidagi o'g'il bolalar o'rtasidagi musobaqada terma jamoa faxrli birinchi o'rinni egalladi. «Huquqiy axborot», «Yosh kitobxon» tadbirlari va «Huquqiy zakovat» intellektual o'yinlari hamda yoshlar mua-

mmolarining yechimiga ko'maklashish maqsadida adliya organlari bilan hamkorlikda 5 ta «Huquqiy maslahat» maydoni tashkil etildi.

Yoshlarning ongida korrupsiya va uyushgan jinoyatchilik – jamiyat va mamlakat ravnaqi uchun o'ta salbiy illatligini targ'ib qiluvchi 1 ta o'quv va 55 ta tarqatma materiallar tayyorlanib, mahalla, ta'lim muassasalari

va mehnat jamoalarida bir marotaba sayyor sud majlisi tashkil etildi. Yoshlarni zamonaviy kasb (IT, xorijiy til) to'garaklariga jalb qilish, ishsiz yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha mehnat yarmarkasi o'tkazildi.

Nizoli va ajrim yoqasiga kelgan oilalarning 6 nafar voyaga yetmagan farzandlariga psixologik-huquqiy yordam ko'rsatilib, Navoiy mahallasida joylashgan 46-sonli o'rta ta'lim maktabida Ko'chma tibbiy punkt tashkil etildi hamda yoshlar shifokorlar ko'rigidan o'tkazilib, tibbiy maslahatlar olishlari tashkillashtirilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, yoshlarga e'tibor qaratsak, vaqtida tayanch va suyanch bo'lsak, kelajagimiz porloq hamda farovon bo'ladi.

**Rajab SHAROPOV,**  
kapitan.

Buxoro viloyati.

## Harakat xavfsizligi yo'lida

Ma'lumotlarga ko'ra, respublikamizda aholi sonining ko'payishi bilan bir qatorda aholining transport vositasiga bo'lgan ehtiyoji ham oshib bormoqda. Jumladan, Jizzax viloyatida transport vositalari soni 2000-yilga nisbatan besh baravarga oshgan. Shuningdek, viloyat hududiga bir kunda o'rtacha 80–100 mingga yaqin transport vositalari kirib kelib, jami harakatlanayotgan avtomobillar soni 270 mingtaga yetyapti. Bu esa tirbandliklarni keltirib chiqarishi tabiiy. O'tgan yil tahlillariga ko'ra, so'dir etilgan yo'l-transport hodisalarining 15 foizdan 25 foizgacha yo'l infratuzilmasi to'g'ri tashkil etilmaganligi sabab bo'lgan. Shu sababli yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilib, bu borada hamkorlikda amalga oshirish lozim bo'lgan dolzarb vazifalar belgilangan.

Navro'z bayrami arafasida Jizzax shahrining «Toshloq» mahallasi hududidagi eng gavjum Sharof Rashidov va Shifokorlar ko'chasi kesishgan chorrahada yangi

## YANGI YO'L – YANGI YO'NALISH

**Avtomobil – zamonaviy oilalarning qadrdon a'zosi. Biroq so'nggi vaqtlarda transport vositalari sonining keskin oshib borayotganligi harakat oqimini tartibga solishni qiyinlashtirayotgani ham bor gap.**



zamonaviy yo'lning foydalanishga topshirilishi ana shu vazifalarning amaldagi ijrosi bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 2-dekabrda viloyatga tashrifi chog'ida Jizzax shahridagi tirbandliklarning bartaraf etish uchun 10 kilometrli aylanma yo'l qurish vazifasi qo'yilgan edi. Yangi barpo

etilgan yo'l ushbu vazifaga asosan yo'lsozlar tomonidan loyihada belgilangan 1-bosqichdagi amalga oshirilgan ishlar samarasidir.

Yangi yo'l bo'ylab piyodalar uchun ham qulayliklar yaratildi. Quyosh panelli yoritish chiroqlari, piyodalar, nogironlar hamda velosipedda harakatlanuvchi-

lar uchun yo'laklar barpo etilgan. Harakatni tartibga solish uchun yo'lning boshlanish va oxirgi qismlariga zamonaviy turdagi yo'lchiroqlar o'rnatilib, kerakli yo'l belgilari hamda yo'l yotiq chiziqlari bilan jihozlandi.

– Yangi yo'llar yangi yo'nalishlarni ochadi. Ushbu yo'l «Turon» mahallasi aholisi

yoki Sayiljoyi ko'chasidan harakatlanuvchilar uchun tig'iz vaqtlarda manzilga tezroq yetib borish, shahar ichida harakat oqimini jadallashtirishga imkon beradi. Markaziy ko'chaga tushadigan yuklama ham kamayadi. Bu esa shahar infratuzilmasini yaxshilash va tirbandliklarning oldini olishda yana bir muhim omil, – deydi Jizzax viloyati IIB JXX YHXB Axborot guruhi mutaxassisi, safdor Sabohat Davlatova.

Joriy yilda viloyat hududida tirbandliklarning oldini olish maqsadida «aqli chorrahalar» sonini 70 taga yetkazish, 5 ta yo'l o'tkazgich va tonnellar barpo etish, 30 km piyodalar va 25 km velosiped yo'laklari tashkil etish kabi asosiy vazifalar belgilangan.

**Muqaddas SAPAROVA,**  
**o'z muxbirimiz.**  
Jizzax viloyati.

## Mahallaning ichki ishlar organlaridagi vakili

## MAYORNING EZGU MAQSADI

**Sirdaryo viloyatining Sardoba tumani «Birlashgan» mahallasi profilaktika inspektori, mayor Siyovush Zaripov har kuni kuzatuv kameralaridagi yozuvlarni ko'zdan kechirishni odat qilgan. O'tgan yili o'rnatilgan 24 ta zamonaviy videokamera kecha-yu kunduz qayd qilish xususiyatiga ega. Bu esa hududdagi kriminogen vaziyatni nazorat qilish, ko'pgina noxush holatlarning oldini olish imkonini beradi.**

Lavhamiz qahramoni o'tgan yili mazkur lavozimga tayinlanganida, ishni spirtli ichimlikka mukkasidan ketgan, huquqbuzarliklarga moyil shaxslarni o'rganishdan boshladi. Qirq to'rt yoshli Narimon aka (ismlar o'zgartirildi) ana shundaylardan biri edi. U oilasidan ajrashgan bo'lib, hech joyda ishlamasdi.

Siyovush dastlab mahalladagi yaxshi insonlar ko'magida Narimon akani ichkilikbozlik dardidan davolatish chorasini ko'rdi. Kasalxonadagi 10 kunlik muolaja kursidan keyin uni obodonlashtirish tashkilotiga ishga joylashtirdi. Uning uyi oqlab-ko'klab berildi, yashash sharoiti yaxshilandi. Olti oylik sa'y-harakatlardan, doimiy nazoratdan so'ng Narimon aka ijobiy tomonga o'zgardi.

Ikki bolasini olib, uyini tashlab ketgan xotinini ortga qaytarish choralari ko'rildi. Natijada uning xonadoni yana farzandlarining shodon qiyqirig'iga to'ldi. Turmush o'rtog'i xususiy do'konga sotuv-



chilikka joylashtirildi. Oila doimiy daromad manbayiga ega bo'lgach, qarabsizki, ro'zg'orga baraka kirdi. Bu xayrli ishlarning barchasiga Siyovush bosh-qosh bo'lib turdi.

Mahallada uch nafar probatsiya nazoratidagi shaxs bor. Inspektor har kuni ulardan xabar olishni kanda qilmadi. Zarur bo'lganida ko'makka keldi. Natijada ularning

ikki nafariga nisbatan muddatidan oldin shartli ravishda jazodan ozod qilish bo'yicha sudga taqdimnoma kiritildi.

Nizoli, janjalkash oilalar ham Siyovushning diqqat markazida. Ushbu maqola yozilayotgan paytda ham qaramonimiz bir oilaviy nizoni hal qilish bilan band edi. Mahallada yolg'iz o'g'li va kelini bilan yashovchi qaynona janjalning bosh sababchisi. U kelini bilan olti oydan beri kelisha olmaydi. Janjal mayda, arimas gaplar ortidan kelib chiqayotganiga inspektor allaqachon amin bo'lgan. Axiyri o'zaro kelishilgan holda ayolning o'g'li xotini va ikki farzandi bilan alohida xonadonga ko'chirildi. Shu tariqa nizo bartaraf etildi.

Qariyb besh ming nafar aholi istiqomat qiladigan «Birlashgan» mahallasi, mana, ikki yildirki «yashil» toifada. Bunga erishish uchun o'zaro ahillik, tinchlik-osoyishtalik muhiti yaratildi. Ana shu muhitning saqlab qolinishida mayor Siyovush Zaripovning xizmati katta. Uning ezgu maqsadi mahalla ahli hamisha o'z turmushidan mamnun bo'lishiga hissa qo'shish.

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,**  
**o'z muxbirimiz.**

Sirdaryo viloyati.

Forum

## ORZUNI HAQIQATGA AYLANTIR

Yaqinda Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV JXX HPB Xotin-qizlar masalalari bo'yicha bo'limi tashabbusi bilan Kegeyli tumani-da «Maqsadni haqiqatga aylantir» shiori ostida forum o'tkazildi. Tadbir xotin-qizlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgani bilan katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Forumda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Prokuraturasi, tumandagi qator davlat idoralari va tashkilotlari vakillari, tuman IIBlarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlari ishtirok etdi.

Tadbirda tuman hokimi A. Kamalov tumanda xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi rolini yanada oshirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida to'xtaldi. Shuningdek, huquqni muhofaza qilish organlari, mahalla faollari va jamoatchilik vakillarining o'zaro hamkorligi natijasida joriy yilning o'tgan davri mobaynida hududda birorta ham jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmaganini alohida ta'kidladi.

– Bugungi kunda Kegeyli tumani-da 75 mingdan ziyod aholi istiqomat qilib, ulardan 36 mingdan ortig'ini xotin-qizlar tashkil etadi. Joriy yilning o'tgan davri mobaynida 53 ta xonadon o'rganilib, xotin-qizlarga



doir 12 ta muammo aniqlandi. Ayni kunga qadar ulardan 9 tasi ijobiy hal etildi, qolganlari esa ko'rib chiqish jarayonida. Bugungi forum doirasida tumanimizda o'z maqsadini haqiqatga aylantirib kelayotgan zamon-doshlarimizni yaqindan tanishtirishni rejalashtirganmiz, – dedi tadbirda so'zga chiqqan Kegeyli tumani IIB JXX HPB XQMB katta inspektori, kapitan Sapargul Berdishova.

Shundan so'ng forum ishtirokchilari tumandagi «Arziu» fermer xo'jaligi rahbari, «Do'stlik» ordeni va «Ibratli ayol» ko'krak nishoni sohibasi Palzada Saliyevaning faoliyati bilan yaqindan tanishishdi. U o'zining fermerlik faoliyatini 1994-yilda boshlagan edi. Palzada Saliyeva ayni

kunda 30 nafardan ortiq kishini ish bilan ta'minlagan.

Tadbir davomida jamoat ishlarida faol ishtirok etib kelayotgan bir qator xotin-qizlarga Qoraqalpog'iston Respublikasi IIVning tashakkurnomalari topshirildi. Shuningdek, xalqimizning milliy urf-odatlarini, an'analari aks ettiruvchi sahna ko'rinishlari namoyish qilindi. Bundan tashqari, tadbir ishtirokchilari tumandagi Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi kutubxonada yoshlar bilan uchrashib, ularning ijodda va sportda erishayotgan natijalari bilan tanishishdi.

**Azamat PIRNIYAZOV,**  
o'z muxbirimiz.

*Qoraqalpog'iston Respublikasi.*

## Probatsiya xizmati

### JAZO EMAS, SINOVLIGINI TUSHUNDI

**Jamiyat taraqqiyoti inson taqdiri bilan chambarchas bog'liq. Har bir inson hayotida turli sinovlar, adashishlar uchrashi tabiiy. Ayniqsa, qonunbuzarlik yo'lga kirib qolgan shaxslar uchun hayot yangi sinovlarni taqdim etadi. Bunday vaziyatda probatsiya tizimi nafaqat nazorat, balki tarbiya, qo'llab-quvvatlash va qayta ijtimoiylashtirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.**

Probatsiya nazoratidagi shaxslar jamiyatdan chetlatilgan emas, aksincha, ularga ikkinchi imkoniyat beriladi. Ularning taqdiriga befarq bo'lmaslik, e'tibor va ishonch bildirish barqaror jamiyat qurishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Gulshan Latipova

probatsiya ro'yxatida (ism-sharifi o'zgartirildi) bo'lib, uning hayot yo'li xato va tuzalish, ishonch va umid o'rtasida kechayotgan, xatosi esa og'ir edi.

U qalbaki hujjat tayyorlashga qo'l urgan, nafsini yo'lga kirib kelajagini xavf ostiga qo'ygandi. O'zbekiston Respublikasi JKning 228-moddasi 2-qismi bilan aybli deb topilib, 1 yil 6 oy muddatga axloq tuzatish ishlari tayinlandi. Sud qarori e'lon qilingan kuni u o'zini yo'qotgandek bo'ldi. Ammo keyin tushundiki, bu jazo emas, balki sinov va imkoniyat ekan.

Probatsiya inspektori bilan birinchi uchrashuvidayoq unga aniq talablar qo'yildi. Tartib-intizom, mehnat va jamoat bilan aloqa. Gulshan boshida bu qoidalarni og'ir qabul qildi. Lekin

asta-sekin bu qat'iy tartib va nazorat uni to'g'ri yo'lga boshlayotganini angladi.

Mahalladagi ayollar unga avval shubha bilan qarashdi. Kimdir pichirladi, kimdir yuz o'girdi. Bu holat Gulshanni qattiq o'yantirdi. U o'zini oqlash uchun gap emas, amal qilish kerakligini tushundi.

Payariq tuman Mahalla markazi binosida tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi bilan hamkorlikda tashkil etilgan «Bo'sh ish o'rinlari» mehnat yaramarkasida probatsiya guruhi nazoratida turuvchi ishsiz shaxslar ham ishtirok etdi. Ushbu yarmarkada tumandagi bo'sh ish o'rinlariga 8 nafar ishsiz shaxsning bandligi taminlandi, 2 nafar kishiga kasb-hunar o'rganishi uchun yo'llanma berildi.

Ishga joylashganlar orasida Gulshan Latipova ham bor. U ishlab chiqarish korxonasiga nazoratchi bo'lib ishga kirdi. Ilgari u o'zini jamiyatdan uzoqlashgan, hech kimga kerak emasman deb his qilgan bo'lsa, endi unga ishonch bildirilayotganini sezdi. Shu kundan boshlab u har bir qadamini o'ylab bosadigan bo'ldi. Chunki bu qadamlar uning jamiyatning munosib a'zosiga aylanishi uchun tashlangan ezgu qadamlar edi.

**Sirojiddin NURMUXAMATOV,**  
mayor.

*Samarqand viloyati.*

## Bu – qiziq

### Xavfsizlik kamari tarixini bilamizmi?



Xavfsizlik kamari – himoya vositasi bo'lib, haydovchi yoki yo'lovchini yo'l-transport hodisasi, to'qnashuv yoki keskin to'xtash sodir bo'lganda ushlab qolishga mo'ljallangan. To'qnashuv (avtohalokat) sodir bo'lganda xavfsizlik kamari old va orqa o'rindiqdagi yo'lovchi yoki haydovchi uchun o'lim xavfini to'qnashuvning turiga qarab 2 baravarga, to'qnashgan avtomashina ag'darilgan vaqtda 5 baravarga kamaytiradi.

Xavfsizlik kamari yaratilish tarixiga nazar solsak. XIX asr boshida ingliz olimi Jorj Keyli tomonidan xavfsizlik kamarini qo'llash taklifi berilgan. 1885-yil AQSHda ilk bor ushbu moslamaga patent berilgan. 1903-yil Luis Reno besh nuqtali xavfsizlik kamarini ixtiro qilgan. 1909-yil Angliyada spiral prujina va katta lentali yo'lovchini o'rindiqda ushlab qolishga mo'ljallangan xavfsizlik moslamasi ixtiro qilingan. 1913-yil aviatsiya tarixida xavfsizlik kamarini ilk bor Adolf Pegu qo'lladi, ammo, 1930-yilga kelib xavfsizlik kamari samolyotlarda qo'llanilishi to'xtatilgan. 1920-yilning boshida xavfsizlik kamaridan poygachilar foydalanana boshlaganlar. Ammo o'sha vaqtlardagi xavfsizlik kamarlari kundalik foydalanish uchun noqulay bo'lganligi sababli avtomobillar orasida ommalashmagan. 1950-yillar oxirida «Volvo» shved avtomobil kompaniyasining injeneri Nils Bolin uch nuqtali xavfsizlik kamari ixtiro qildi. Yillab tajriba va amaliyotlar sinovi natijasidan so'ng Bolin, yo'lovchilarni yelkasidan bel qismigacha tortilgan kamar eng qulay deb xulosa qildi. Qolaversa, bunday xavfsizlik kamari qo'l bilan tiqishga qulay deb hisoblandi. Bunday xavfsizlik kamarlarini «Volvo» kompaniyasi 1959-yilda ommaga namoyish qildi. Shu tariqa ilk bor 1957-yil Shvetsiya avtomobillar uchun xavfsizlik kamari taqish majburiyatini qonunga kiritgan birinchi mamlakat bo'ldi.

**Feruz YO'LDOSHOV,**  
o'z muxbirimiz.



## Tuman IIBda

## YURT TINCHLIGI VA XALQ ROZILIGI YO'LIDA

**Inson zoti borki, tinchlik-osoyishtalikni eng ulug' ne'mat, deb biladi. Erta tongda xotirjam uyg'onish, farzandlarimizni maktab va bog'chalarga xavotirsiz kuzatish, ko'nglimiz to'q holda mehnat qilish bularning barchasi yurtimizda hukm surayotgan osoyishtalik mevasidir. Bugun biz erishayotgan har bir yutuq va kelajakka qo'yilayotgan qadamlar zamirida, avvalo, huquq-tartibot organlari xodimlarining kun-u tun qilayotgan zahmatli mehnati yotibdi.**

Xususan, Jalaquduq tumani IIB tomonidan hududda jinoyatchilikning oldini olish, huquqbuzarliklarga qarshi kurashish va jamoat xavfsizligini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar bugun o'z natijasini bermog'da. Bu borada, nafaqat, inson omili, balki zamonaviy axborot texnologiyalarining keng joriy etilayotgani alohida ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashishda «raqamli nazorat» tizimi muhim bo'g'inga aylandi. Tumandagi odamlar eng ko'p to'planadigan joylar, ko'p qavatli uylarning ichki hovlilari hamda mahallalarning kirish va chiqish nuqtalariga jami 28 ta PTZ (Pan-Tilt-Zoom) kameralari o'rnatildi. Bu shunchaki oddiy kuzatuv vositasi emas. U masofadan turib boshqariladigan, 360 darajaga aylana oladigan, pastga va tepaga egilish imkoniyatiga ega hamda tasvirni o'nlab marta yaqinlashtirib, eng kichik detallarni ham aniq ko'rsatadigan «aqli» qurilmadir. Bu esa hududda shubhali harakatlar sodir bo'lganda soniyalar ichida tezkor chora ko'rish imkonini beradi. Bundan tashqari, 12 ta maxsus kamera inson yuzini va avtomobillarning

davlat raqamini avtomatik taniydi. Yuzlab xonadonlar va tadbirkorlik obyektlari «tashvish tugmalari»ga ulandi. Natijada hududda 15 ta «Xavfsiz ko'cha» va 11 ta «Xavfsiz uy» konsepsiyasi to'liq shakllandi. Bu tizim aholining o'z uyi va ko'chasi-da xavotirsiz yashashi uchun mustahkam qalqon bo'lib xizmat qilmoqda.

– Bu sa'y-harakatlarining bosh maqsadi jinoyat sodir etilgandan keyin uni fosh qilish emas, balki kelib chiqish sabablarini barvaqt aniqlab, oldini olishdir, – deydi tuman IIB boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Abbasbek Hasanov. – Profilaktik tadbirlarning ahamiyati shundaki, ular orqali ko'plab ko'ngilsizliklarning oldi olinadi. Masalan, birgina «Tig'» tadbiri davomida fuqarolar tomonidan belgilangan tartibni buzish, ya'ni jamoat joylarida o'tkir tig'li, inson sog'lig'i uchun xavfli buyumlarni olib yurish bilan bog'liq 36 ta holat aniqlanib, ularga nisbatan qonuniy choralar ko'rildi. Bu bilan o'nlab ehtimoliy jarohatlanishlar yoki og'ir jinoyatlarning oldi olindi. Shuningdek, zamonaviy tahdid bo'lgan kiberjinoyatchilikka qarshi kurash ham kuchaytirildi. Yil boshidan

beri 19 ta axborot texnologiyalari bilan bog'liq holat qayd etildi va bu yo'nalishda aholining huquqiy savodxonligini oshirish ustida tizimli ish olib borilmoqda.

Barcha xayrli ishlar, avvalo, mahalladan boshlanadi. «Bo'ston» mahallasi bunga yaqqol misol bo'la oladi. 3221 nafar aholi istiqomat qiladigan, 16 ta ko'chadan iborat bu maskanda ahillik va tartib birinchi o'rinda turadi. Har bir xonadonda o'tkazilgan o'rganishlar shunchaki nazorat emas, balki aholining ijtimoiy muammolarini hal etishga yo'naltirilgani bilan ahamiyatlidir. Xususan, olib borilgan amaliy ishlar



**Podpolkovnik Abbasbek Hasanov qo'riqlash bo'limi boshlig'i, kapitan Shodiyorbek Soliyev bilan.**



**Tergov bo'limi surishtiruvchisi, katta leytenant Mahmudjon Akramov tergovchi, katta leytenant Oybek Qodirov bilan.**

natijasida 53 nafar ishsiz fuqaro doimiy ish o'rinlariga ega bo'ldi. Ichkilikka yoki qonunbuzarlikka moyilligi bor shaxslar bilan individual tartibda profilaktik suhbatlar olib borilishi natijasida mahalladagi ma'naviy muhit sog'lomlashdi.

– Ichki ishlar xodimining kuchi xalqning ishonchidir,

– deydi mahalla profilaktika inspektori, katta leytenant Jahongir To'ychiyev. – Har bir to'y va azada, quvonchli va tashvishli kunlarda mahalla ahli bilan birga bo'lish odamlarda daxldorlik hissini uyg'otadi. Shu sababli ko'p muammolar yuqori idoralarga chiqmasdan, mahallaning o'zida oqsoqollar va faollar

ishtirokida ijobiy yechim topmoqda.

– Inspektorimiz Jahongir har bir ishda biz nuroniylar bilan maslahatlashadi, – deya suhbatga qo'shildi mehnat faxriysi Qosim aka Ashurov. – Biror kishi nojo'ya ish qilsa, darrov mahalla oqsoqollari bilan birgalikda muhokama qilib, fuqaroni to'g'ri yo'lga solamiz. Bu yerda hamma ahil-inoq yashaydi, hech kim muammosini tashqariga olib chiqmaydi, chunki bizda ichki tartib va o'zaro ishonch kuchli.

Xulosa qilib aytganda, Jalaquduq tumanida olib borilayotgan bu kabi tizimli islohotlar yurt tinchligi va xalq roziligiga xizmat qilmoqda. Tinchlik bor joyda rivojlanish bo'ladi, kelajakka bo'lgan ishonch esa yanada mustahkamlanaveradi.

**Saminjon HUSANZODA,**  
o'z muxbirimiz.  
Andijon viloyati.



**Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi boshlig'i, mayor Shavkatbek Abdulfazlov hamkasblari bilan.**



**Katta leytenant Jahongir To'ychiyev mahalla faollari bilan.**

Yoshlar — kelajak bunyodkori

## MAS'ULIYATNI HIS ETIB

**Bugungi kunda tizimda burchini chuqur anglab, sidqidildan bajarayotgan bilimlari va fidoyi xodimlardan biri katta serjant Isroil Ergashovdir.**

Lavhamiz qahramoni mehnat faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida boshlab, hozirgi kunda IIV huzuridagi JIED Moliya va moddiy texnika ta'minoti boshqarmasi moliya-iqtisod bo'limi katta mutaxassisi lavozimida xizmat qilyapti.

Moliyaviy hujjatlarni yuritish, budget mablag'larini rejalashtirish, sarf-xarajatlarni maqsadli va samarali tashkil etish kabi muhim ishlarni bajarish — uning zimmasidagi vazifadir.

Isroil Ergashov izlanishdan to'xtamaydi. Ana shu intilish uni magistratura ta'limiga yetakladi. U O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida tahsil oldi.

Hozirda ilmiy faoliyat bilan ham shug'ullanayotgan lavhamiz qahramoni «Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya» ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish maqsadida mustaqil izlanuvchi sifatida tadqiqotlar olib boryapti. Uning zamonaviy iqtisodiyotning dolzarb masalalariga bag'ishlangan bir qator ilmiy maqolalari nashr etilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi miqyosida o'tkazilgan «Milliy iftixor» tanlovida munosib ishtirok etib, esdalik nishoni bilan taqdirlandi.

Bo'sh vaqtlarida XX asr o'zbek adabiyoti vakillarining romanlarini sevib mutolaa qiladigan lavhamiz qahramoni xalqimizning tarixi, milliy qadriyatlarini va inson ruhiyatining nozik qirralarini chuqur anglashga intiladi.

— Kitob insonni tarbiyalaydi, uning dunyoqarashini kengaytiradi, bilimlarini boyitadi — deydi u.

**Inomjon RAHIMXO'JAYEV,**  
mayor.



Muammo va mulohaza

## «LAYK YIG'MOQCHIYDIM...»

### yoxud mashhur bo'lishning nomaqbul yo'li

**Shu yilning 10-mart kuni Jizzax shahrida, tungi vaqtda avtomobilning davlat raqamini yechib harakatlangan va bu haqdagi videoni Instagramdagi profiliga joylagan yosh yigitdan yo'l-patrul xizmati xodimlari buning sababini so'rashganida, huquqbuzarning javobi shunday bo'ldi: «Layk yig'moqchiydim...»**

So'nggi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda yo'l harakati qoidalarini buzish holatlari aks etgan videolar tez-tez uchramoqda. Ayrim haydovchilar tezlikni oshirish, yo'lchiroqqa bo'ysunmaslik, xavfli manyovrlar qilish yoki boshqa qoidabuzarliklarni amalga oshirib, buni videoga olib tarmoqlarga joylashmoqda. Achinarlisi, bunday holatlar ba'zan «jasorat» yoki «qiziq kontent» sifatida qabul qilinmoqda.

Aslida, yo'l harakati qoidalarini buzish oddiy rasmiyatchilik emas. Ular inson hayoti va salomatligini muhofaza qilish uchun ishlab chiqilgan. Yo'ldagi har bir belgi ortida inson xavfsizligi yotadi. Shu bois qoidalarga befarq qarash, mensimaslik nafaqat haydovchining, balki boshqa yo'l harakati ishtirokchilari hayotiga ham xavf tug'dirishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan bunday videolarning yana bir salbiy jihati shuki, ular ayrim yoshlar uchun noto'g'ri namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin. Axir qiziq yoshlar «layk» yig'ish yoki kuzatuvchilar sonini ko'paytirish niyatida xavfli harakatlarni

takrorlashga urinsa, bu jiddiy oqibatlariga olib kelishi aniq.

— Ijtimoiy tarmoqlarni muntazam kuzatib, tahlil

«erkatoylar»ning qilmishlari fosh etilib, ularga nisbatan qonunchilikda belgilangan jazo choralari qo'llanilgani haqidagi ma'lumotlarni murojaat yo'llagan shaxslarga yuborib, hamkorlikni davom ettirishlarini so'rayman. Shu tarzda faol fuqarolar safi oshib boradi. Zero, qoidabuzarlarga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratining o'ni katta.

zatuylarga ko'ra, asosan 16–30 yosh oralig'idagi fuqarolar tomonidan shunday qilmishlar sodir etilmoqda. Ular real va virtual hayot o'rtasidagi katta farqni hisobga olishmayapti. Ayniqsa, Instagramda bu holat trendga aylanmoqda.

— Bilasizmi, avvallari ko'pchilik qoidabuzarlik haqida videomateriallar tayyorlashimizga or-nomus yuzasidan

bu ishidan uyalmaydigan yoshlar soni ko'paymoqda. Shu bois ota-onalar va ta'lim muassasalari mas'ullaridan yoshlarni qonunlarga hurmat ruhida, boshqalar hayotiga javobgar, o'z xatti-harakatiga mas'uliyatli qilib tarbiyalashlarini so'rayman.

Unutmaslik kerakki, yo'l harakati qoidalarini buzish javobgarlikka sabab bo'ladi. Qonunchilikka ko'ra, 16 yoshga to'lmagan shaxslarning ota-onasiga, 16 yoshdan oshgan fuqarolarning o'ziga qoidabuzarlik uchun javobgarlik belgilanadi. Bundan tashqari, jamoatchilikning keskin tanqidi, nafratiga ham tayyor turish kerak.

Mashhurlik yoki e'tibor qozonishning turli yo'llari bor. Ammo yo'l harakati qoidalarini buzish orqali «layk» yig'ish — nomaqbul yo'l. Qoidalarga amal qilish, yo'l madaniyatiga rioya etish va boshqalar hayotiga hurmat bilan qarash — chinakam ma'naviyatli insonning sifati. Ko'rinadiki, yo'llarimizning yanada xavfsiz bo'lishi faqat soha mas'ullariga emas, ota-onalar, ta'lim beruvchilar hamda butun jamiyatga tegishli masala. Ma'muriy javobgarlik yoki boshqa choralar bilangina maqsadga erishib bo'lmaydi. Ta'lim-tarbiyaning qudratli ta'siri shu mavzuda ham yaqqol ko'rinadi.

**Muqaddas SAPAROVA,**  
o'z muxbirimiz.  
Jizzax viloyati.



qilib boramiz. Fuqarolarning befarq emasligi kishini quvontiradi. Mening shaxsiy sahifamga bir kunda 20 tagacha murojaat kelib tushadi, — deydi Jizzax viloyati IIB JXX YHXB katta inspektori, katta leytenant Abbas Dadashev. — Yo'ldagi

Afsuski, so'nggi paytlarda yoshlar xorijning jangari filmlaridagi saundtreklar, bosh qahramonlarning gaplaridan foydalangan holda videolavhalar yaratib, xatti-harakatlarini, ehtimolki, o'z «men»ini shu tarzda namoyish qilishmoqda. Ku-

e'tiroz bildirishardi, — deya so'zini davom ettiradi katta leytenant A.Dadashev. — Hozir esa «erkatoylar» kamera qarshisida g'oz turib, o'zlarini qahramon kabi tutadilar. Hatto o'ziga nisbatan chora ko'rilgani haqidagi videolavhani profiliga joylayotgan,

## Шогирд устози ҳақида

## ОДАМ АЗИЗ, МЕҲР-ОҚИБАТ ҚАДРЛИ ЭКАН,

– дейди Қорақалпоғистон Республикаси ИИБ Фахрийлар кенгаши раиси Фарҳод Санкибаев

**И**чки ишлар органларининг йўл ҳаракати йўналишида узоқ йиллар хизмат қилиш унча-мунча ходимга насиб этавермайди. Бу тизимда қўли пок, лафзи ҳалол, виждонли, жисмонан бақувват, маънан соғлом ва касбига фидойи ходимларгина узоқ вақт хизмат қила олади, десак, сира муболаға бўлмайди. Қорақалпоғистон Республикаси ИИБ Фахрийлар кенгаши раиси, истеъфодаги подполковник Фарҳод Санкибаевнинг фаолиятига назар солсангиз, унинг асосий хизмат йиллари айнан шу соҳа билан боғлиқ эканига гувоҳ бўласиз.

Фарҳод Санкибаев бундан 60 йил бурун, айна баҳор фаслида Кегейли тумани «Актўба» овул фуқаролар йиғинида Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиси, Республикада хизмат кўрсатган пахтакор Рейм оға Санкибаев оиласида дунёга келди.

– Онажоним Райҳона – «Жасорат» медали соҳибаси, «Қаҳрамон она» унвони эгаси эди. Онамнинг айтишича, мен туғилганимда Қалмурза, Аймурза ва Бекмурза акаларим ҳамда опаларим – Набиҳан ва Гулайимлар менга исм излашиб, Навоийнинг «Фарҳод ва Ширин» достонидаги Фарҳод исмини танлашиб, шу отни қўйишган экан, – деб эслайди устоз.

Ички ишлар органларидаги фаолиятини 1991 йилда Нукус шаҳар ИИБ давлат автомобиль назорати бўлинмаси тар-

фибот ва ташвиқот ишлари бўйича инспектори лавозимида бошлаган лавҳамиз қаҳрамони ушбу тизимда кўп йиллар мобайнида сadoқат билан хизмат қилиб, Қорақалпоғистон Республикаси ИИБ Йўл ҳаракати хавфсизлиги бошқармаси бошлиғининг шахсий таркиб билан ишлаш бўйича ўринбосари лавозимига бўлган масъулиятли ва сермашаққат йўлни босиб ўтди.

Шахсий таркиб билан ишлашда катта тажриба тўплаган Фарҳод Санкибаев 2001 йилдан 2012 йилга қадар Қорақалпоғистон Республикаси ИИБ Шахсий таркиб билан ишлаш хизматида фаолият олиб бориб, ҳамкасблари орасида хурмат эътибор қозонади. 2012 йилда вазирлик Шахсий таркиб билан ишлаш хизмати бошлиғи ўринбосари лавозимидан пенсияга чиқади.



Лекин уйда ўтиришни ўзига эп кўрмай, Ўзбекистон Республикаси ИИБ ҳузуридаги Инновация лойиҳалари ва аҳолига сервис хизматини кўрсатиш марказининг Қорақалпоғистон Республикаси филиалида мутахассис бўлиб ишлайди. Шу билан бирга, вазирлик фахрийлар кенгаши фаолиятида мунтазам қатнашиб туради.

Ходимлар билан ишлаш, уларни ижтимоий-ҳуқуқий ҳимоя қилиш, тарбиялаш ва маънавий-маърифий билимларини ошириш борасидаги тажрибасини инobatга олган вазирлик раҳбарияти 2022 йилда уни Фахрийлар кенгаши

раиси лавозимига таклиф қилишади.

– Бугун ИИБ тизимида 4192 нафар пенсионер бўлиб, шулардан 3102 нафари хизмат йили бўйича, 308 нафари ногиронлиги ва 683 нафари эса боқувчисини йўқотганлиги бўйича ҳисобда туради. Моддий ёрдамга ва соғлиғини тиклашга муҳтож фахрийлар доим эътиборимизда, – дейди Фарҳод Санкибаев. – Кексайиб қолган фахрийларимиз ҳолидан хабар олишга алоҳида эътибор қаратяпмиз. Айниқса, хизмат даврида бирга ишлашган ҳамкасблари, дўстларини ёнимизга олиб, уйига

ёки касалхонага бирга борганимизда, улар шу қадар қувонишадики, айримлари ҳай-ҳайлашимизга ҳам қарамай, ётган жойидан туриб кетишади. Узоқ суҳбат қуришиб, руҳан тетиклашади. Шундай кезларда бу дунёда одамга одамдан азиз, меҳр-оқибатдан қадрли нарса йўқ эканлигига яна бир карра амин бўламиз.

Қаҳрамонимиз устозлари марҳум полковниклар – Утеген Ниязқулов, Едилбай Даулетниязовни тез-тез эслаб туради. Шунингдек, Аллабай Жолдасбаев, Исмагул Данегулов сингари устозлари ҳолидан хабар олиб туради. Ўз навбатида, Қувандиқ Кайпов, Эртас Усенов ҳамда Мурад Айтбаев сингари шогирдлари билан сўраб борганимизда кўнгли тоғдай кўтарилади.

Устоз турмуш ўртоғи Замира опа билан 3 қизни тарбиялаб вояга етказишди. Ўқитиб элга қўшишди. 11 апрель куни устозимиз 60 ёшга тўладилар. Барча шогирдлари, дўстлари ва фахрийлар номидан уларга узоқ умр, мустақкам соғлиқ ва оилавий бахт тилаймиз.

**Умид ЎРОЗАЛИЕВ,**  
подполковник.  
Қорақалпоғистон Республикаси.

## Giyohvandlik — asr vabosi

## НАР КИМ НАР ДАРДА...

**Hayotda to'g'ri yo'ldan toyilib, egri yo'larda sarson-sargardon yurgan, adashgan insonlarni ko'p uchratganmiz. Ular orasida turli illatlar qurboniga aylanib, bor-yo'g'idan, mansab-martabasidan, oilasidan ayrilganlar ham yo'q emas. Bir soniyalik lazzat, soxta kayf-safo deb turli qing'ir, noqonuniy ishlarga qo'l urayotganlar kam deysizmi?**

Ayrimlarni ana shunday insoniylikdan chiqarib, hayvoniy qiyofaga solib qo'yayotgan, o'zligimizga, ma'naviy olamimizga, kelajagimizga tahdid solayotgan xavfli illatlardan biri, shubhasiz, giyohvandlik balosidir.

Ha, so'nggi yillarda insoniyat jinoyatchilik, qurolli to'qnashuvlar, ekologik muammolar, turli xavfli kasalliklar bilan bir qatorda, giyohvandlik balosidan ham jiddiy aziyat chekmoqda. Narkotik moddalar ta'sirida jismonan zaif, aqlan qashshoq, nogiron bolalar dunyoga keladi. Bu ofat oqibatida qanchadan-qancha umrlar bevaqt xazonga aylanadi, oilalar parokanda bo'ladi.

Shifokorlarning ta'kidlashicha, bolalarning aqliy va jismoniy nuqson bilan tug'ilishiga, eng avvalo, alkogol ichimliklar hamda giyohvand moddalar iste'moli sabab bo'lar ekan.

Afsuski, ba'zilar shunga qaramay, giyohvand moddalar iste'moliga ruju qo'yib, ularni yetishtirish va sotish bilan shug'ullanishadi. Bundaylarning kasriga esa qaysidir onaning nuridiydasi, kimningdir og'a-inisi, boshqa birorining turmush o'rtog'i qoladi. Giyohvandlik ta'sirida o'z yaqinlarining qotiliga aylanib qolayotganlar kammi?

Joriy yilning 6-mart kuni o'tkazilgan tezkor-profilaktik tadbirlar davomida Pop tumanida navbatdagi qonunbuzarlik holati aniqlandi.

Ichki ishlar bo'limi xodimlari tomonidan «Bunyodkor» mahalla fuqarolar yig'ini Amir Temur ko'chasida yashovchi fuqaro Ulug'bek Qayumov (ism-sharifi o'zgartirildi)ning xonadoni hamda yordamchi xo'jaligida tintuv tergov harakati amalga oshirildi. Tekshiruv jarayonida yashash uyining

yotoqxona qismida 24 dona, har biri 200 grammlilik stakanlarga ekilib, parvarish qilinayotgan, ko'chatlar borligi ma'lum bo'ldi.

Namangan viloyati IIB Ekspert-kriminalistika markazining xulosasiga ko'ra, tarkibida faol giyohvandlik moddasi mavjud bo'lgan ushbu 20 tup o'simliklar kannabis giyohvandlik vositasi ekanligi tasdiqlandi.

Mazkur holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, hozirda tergov harakatlari olib borilmoqda.

Jamiyatimizda o'z aql-zakovati, bilim-salohiyati bilan muvaffaqiyatlarga, yuksak natijalarga, hurmat-e'tiborga erishayotganlar bisyor. Ammo, shu bilan birga, Ulug'bek Qayumov kabi yoshi bir joyga borgan bo'lsa-da, haligacha hayotini izga sololmagan, tutumi zararkunandalik bo'lgan, yashashdan maqsadi nima ekanini anglay bilmayotganlar ham kam emas.

**Jahongir TO'XTASINOV,**  
o'z muxbirimiz.  
Namangan viloyati.

Amir Temur tavalludining 690 yilligi

# SOHIBQIRON TUG'ILGAN MASKAN

**H**indiston hamda Xitoydan Qora dengizgacha, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar bo'lgan hududni o'z ichiga olgan saltanatga asos solgan sohibqiron Amir Temur 1336-yilda Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tavallud topgan.

Tarixchi Ibn Arabshohning «Ajaibul-maqdur fiy tarixi Taymur» asarida Sohibqiron Amir Temurning Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilganligi haqida «Temur ibn Tarag'ay ibn Abag'ay bo'lib, uning tug'ilgan joyi Xo'ja Ilg'or deb atalgan qishloqdir. Xo'ja Ilg'or Keshga qarashli joylardandir – Alloh u yerdan har qanday yomonliklarni daf' etsin» deyiladi.

V. Bartoldning yozishicha, Ibn Arabshoh asaridan boshqa hech bir manbada Temur tug'ilgan joy nomi ko'rsatilmagan. Xo'ja Ilg'or qishlog'i hozirgacha mavjud bo'lib, Shahrisabzdan 13 km janubiy-g'arbiy tomonda – hozirgi Yakkabog' tumani hududida joylashgan. Hozirgi kunda Xo'ja Ilg'or qishlog'i Yakkabog' tumani hududida bo'lib, tuman markazidan atigi 2 km uzoqlikda joylashgan.

«Xo'ja Ilg'or» mahalla fuqarolar yig'ini hududida Amir Temur, Turkiston, Do'stlik, Farovon, Yangibog', Nasaf, Xo'ja Ilg'or, Yangi avlod, Ozod, Istiqbol, Hurriyat nomli ko'chalar mavjud bo'lib, ularda jami 5894 nafardan ziyod aholi istiqomat qiladi. Aholi asosan, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik va tadbirkorlikning turli sohalari ortidan daromad topadi. Mahallada

birorta bekor yurgan odamni ko'rmaysiz. Har bir fuqaro bir qarich bo'lsin yerda dehqonchilik qiladi. O't-o'lanidan chorvasiga ozuqa to'playdi yoki tadbirkorlik bilan band.



**Xo'ja Ilg'or nomi bilan tanilgan Xo'ja Muhammad ibn al Qosim maqbarasi.**

– Yettilik va birlashtirilgan mas'ullar ishtirokida muqaddam sodir etilgan jinoyatlarning sabab va sharoitlari chuqur tahlillar asosida o'rganildi, – deydi tuman IIB JXX HPB profilaktika inspektori, kapitan Akbar Abdunazarov. – Muqaddam sudlangan 2 nafar shaxsning ijtimoiy ahvoli o'rganilib, muammolari hal etildi va qayta jinoyat sodir etishining oldi olindi.

Xo'ja Ilg'orliklar bir-biriga mehribon, o'zaro ahil, odamoxun, mehnatkash va oriyatli xalq. Uydagi gapni tashqariga chiqarishmaydi. O'zaro nizo va kelishmovchiliklarni oqsoqollar ishtirokida joyida – bosqlik va mulohaza bilan hal etishga odatlangan. Mahallada bitta o'rta maktab mavjud. Unda mahallaning 2000 nafardan ortiq o'g'il-qizlari ta'lim olishyapti.

– Mahallamizda notinch oilalar yo'q. «Yoshlar daftari»ga olingan 5 nafar yoshga dehqonchilik qilishi uchun yer ajratildi. «Ayollar daftari»da ro'yxatda turuvchi 14 nafar ayolga kredit asosida tadbirkorlikka shart-sharoitlar yaratib berildi. Bular o'z samarasini berib, barcha turdagi jinoyatlar barham topmoqda, – deydi «Xo'ja Ilg'or» mahalla fuqarolar yig'ini raisi Azamat Normurodov.

– Ikki qo'shni o'rtasida chiqqan nizoni oqsoqollar va faollar ishtirokida tushuntirish ishlari orqali ijobiy hal qildik, – deydi mahalla raisi. – Hudduda 3 ta tungi post tashkil qilindi. Fuqarolar navbati bilan tungi postlarga chiqishyapti. Bular noqonuniy holatlarning oldini olishda muhim rol o'ynamoqda.

**Sodiq RAHIMOV,**  
o'z muxbirimiz.  
Qashqadaryo viloyati.



**Amir Temur tug'ilganda yuvintirilgan buloq.**



**Amir Temur ko'tarib mashq qilgan polvontosh.**



**Ushbu masjidni Amir Temur otasi barpo etgan.**



## Xorazm viloyati

**BEFARQLIK – ENG KATTA JINOYAT**

Gurlanning sokin ko'chalari bo'ylab kezar ekansiz, har bir darvoza ortida o'zgacha bir olam borligini his qilasz. Ammo shu sokinlik ortida ba'zan ko'zdan yiroq, qalbni titratuvchi iztiroblar yoki qonun chegarasini buzib o'tuvchi nafs o'yinlari yashiringan bo'ladi. Tuman IIB boshlig'ining o'rinbosari, mayor Rashid Nurmetovning ish stoli ustidagi hisobotlar shunchaki qog'oz emas, ular – hayotning achchiq lavhalari. «Xavfsiz va sog'lom yurt» tadbiri doirasida aniqlangan faktlar shuni ko'rsatadiki, ba'zan eng katta xavf bizga eng yaqin bo'lgan insonlardan chiqishi mumkin.

– Ikki oy ichida yetmish nafar ayolga himoya orderi berildi, – deydi Rashid aka mulohazakorlik bilan. – Bu yetmishta og'riqli qismat degani. Biz faqat jazo bermaymiz, biz nizoning ildizini qidirib, oilaviy darzlarni yamashga harakat qilyapmiz.

Uning so'zlarida jamiyatning eng og'riqli nuqtasi – oila ichidagi zo'ravonlikka nisbatan nafrat va ayni paytda o'sha oilalarni asrab qolishga bo'lgan umid sezilib turardi.

Bugungi kun firibgari nafaqat ko'chada, balki cho'ntagingizdagi telefoningiz ichida – Telegramning qorong'i kanallarida yashiringan. Mayor birgina ishonuvchanlik ortidan



3,5 million yoki bog'cha hujjatlari ilinjida 91 million so'mini firibgar qo'lga topshirgan insonlar haqida afsuslanib gapirdi.

Jinoyatchi baribir qonundan qochib qutula olmaydi. Ammo hamon savol ochiq qolmoqda: nima uchun biz hali ham «oson pul» yoki

«tanish-bilish» va'dalariga bunchalik tez aldamiz?

Jinoyat doim ham ko'rimsiz joylarda sodir bo'lmaydi. Tashqi tomondan oddiygina ko'ringan, fayzli xonadonlar ichida fohishaxonalarning fosh etilishi yoki devor tirqishlariga yashirilgan «og'u»lar – bu

bizning hushyorligimizni sinovchi holatlardir. Qimorxonalar va yashirin maskanlarning ochilishi Gurlanda «tozalash» jaryoni naqadar jiddiy ketayotganidan dalolat beradi.

Mayor Rashid Nurmetovning fikricha, jinoyatchilikka qarshi ku-

rashda faqat forma kiygan xodimlarning harakati kifoya emas. «Eng katta muammo – befarqlik», – ta'kidladi u. – «Qo'shni-mizning uyidagi notinchlikka ko'z yumishimiz yoki shubhali takliflarga tez ishonib qolishimiz fojialarning boshlanishidir».

Gurlan tumanida bugun jinoyat bilan yuzma-yuz, ochiq va keskin kurash olib borilmoqda. Haqiqat bitta: har qanday jinoyat qanchalik ustalik bilan yashirilmasin, kun kelib quyosh nuridek oydinlashadi. Zero, adolat bor joyda yashirin jinoyatga o'rin qolmaydi.

**Nilufar JABBOROVA,**  
o'z muxbirimiz.

## Hushyorlik hamisha zarur

**«GENTRA»DA TENTIRAB...**

## ikki yigitning umriga zomin bo'ldi

Po'latjon Maqsudov (ism-shariflar o'zgartirildi) avtomashina olish niyatida yurgan kezlarida hamqishlog'i Elyor «Gentra»sini sotmoqchiligini eshitib qoldi.

2025-yil noyabr oyi edi o'shanda. Ertalab uning uyiga bordi.

– Mashinangni bir-ikki kun minib, sinab ko'raman. Agar «ishkal»i bo'lmasa, olaman! – dedi Elyorga.

– O'zi «prava»ngiz bormi? – He yo'q, be yo'q, mashinasini berib yuborishga ko'ngli bo'lmayotgan Elyor undan so'radi. – Ilgari mashina minganmisiz?

– Sen meni kim deyapsan?! – hamqishlog'ining pisandasi Po'latjonga malol kelib, afti burishdi. – Mashinani sendan yaxshi minsam kerak...

Xullas, u haydovchilik guvohnomasini ko'rsatib, «Gentra»ni olib ketdi.

O'sha kuni Po'latjonning qaynotasi to'y qilayotgandi. Kun bo'yi xizmat qildi. Kechga borib ammasining uyiga bordi. Sababi, u ham o'g'il uylayotgandi. U kelgach, zum o'tmay qarindosh-urug'lar maishatni boshlab yuborishdi.

Po'latjon «Bir ozdan keyin mashina boshqarishim kerak. Boz



ustiga, hali «Gentra»ning pulini to'lamagan bo'lsam», deya o'zini qo'lga olish o'rniga, aroq tutishsa ham, konyak tutishsa ham qaytarmadi.

– Men biroz ko'chada havo almashtirib kelaman... – Po'latjon shunday deya tashqariga yo'naldi. Shu payt uning yoniga tanishi Muhammadali keldi.

– Mashinangda shundoq uyimga borib, pul olib kelaylik...

Muhammadalining uyidan pulni olib qaytayotgan Po'latjon to'yxonaga yetay deganda mashinani

boshqarolmay qoldi. U tezlikni haddan ziyod oshirib yuborgan, mashinani chayqaltirganicha minib borardi. «Gentra» nogoh «qars» etib nimagadir urildi. Aslida esa qarshi tomondan velosiped mingan ikki nafar yigit harakatlanib kelayotgan, Po'latjon mastlikda ularni urib yuborgandi.

– Odam urib yubordik, – avvaliga nima bo'lganini anglay olmayotgan Muhammadali ortiga qaradi-yu, yuragi orqasiga tortib ketdi. – To'xtat, mashinani!

Ammo Po'latjon qo'rqqanidan

to'xtamadi. Uning allaqachon kayfi tarqab ketgan, nima qilishini bilmasdi.

– To'xtat! Bechoralarga yordam berish kerak! Seni boshlamay har nima bo'lay! – Muhammadali jahll bilan yelkasidan ushlab, siltalay boshlagach, u mashinani to'xtatdi. Biroq voqea joyiga borishga ham, IIBga qo'ng'iroq qilishga ham yuragi betlamadi. Shu bois, mashinadan tusha solib, qochib qoldi. Shu tariqa anchagacha berkinib o'tirdi. Yon-atrofdagilar yerda yotgan ikki yigitdan birining allaqachon jon taslim qilgani, ikkinchisi hali tirik ekanini bilib, uni shifoxonaga olib borishga oshiqishdi. Ammo ulgurishmadi, yo'ldayoq joni uzildi.

Po'latjon uzoqqa qochib ketolmadi. YHXB xodimlari yetib kelgach, uni qo'lga olishdi.

Sud bo'ldi. Mastlik oqibatida ikki yigitning umriga zomin bo'lgan Po'latjon Maqsudov sakkiz yil muddatga ozodlikdan mahrum etildi.

**Jahongir TO'XTASINOV,**  
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

IIV Birlashgan tahririyati jamoasi tahririyat bo'lim mudiri Kamol Olloyorovga otasi  
**ABDULLA OTA**ning  
vafot etgani munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

IIV Faxriylar kengashi ichki ishlar organlari faxriysi, iste'fodagi podpolkovnik  
**Yusufjon YUSUPOV**ning  
vafot etgani munosabati bilan oila a'zolari va yaqinlariga ta'ziya izhor qiladi.

IIV ta'lim muassasalarida

# SENGA ISHONAMIZ, MUHAMMADDIYOR!

**Bugungi kunda fanlar orasida matematika alohida ahamiyatga ega. Ushbu fan nafaqat hisob-kitob vositasi, balki insonning aqliy rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. U fikrlashni tartibga soladi, mantiqiy va tahliliy yondashuvni shakllantiradi hamda murakkab masalalarga yechim topishga o'rgatadi. Shu bois ushbu fanni chuqur o'rganish shaxsning intellektual salohiyatini oshirishga yordam beradi.**

IIV Ixtisoslashtirilgan maktab-internatida matematika fani chuqurlashtirilgan tartibda o'qitilib, o'quvchilarning mantiqiy fikrlash va tahliliy ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dars jarayonlari zamonaviy ta'lim metodlari asosida tashkil etilib, nazariy bilimlar amaliyot bilan uyg'unlashtirilgan holda o'rgatilyapti.

Shuningdek, iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va maqsadli tayyorlash uchun muntazam ravishda ichki olimpiadalar, intellektual musobaqalar hamda qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazib kelinmoqda. Bu esa o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish va xalqaro maydonlarda munosib ishtirok etishiga mustahkam zamin yaratmoqda.

Natijada, maktab o'quvchilari o'z bilim va salohiyatini amalda namoyon etib, yuqori natijalarga erishmoqda. Jumladan, joriy yilning 28-mart kuni 6-sinf o'quvchi-



si Muhammadiyor Usmonjonov matematika yo'nalishida navbatdagi yutuqni qo'lga kiritdi. U nufuzli IMAS Xalqaro matematika olimpiadasining O'zbekiston bosqichida ishtirok

etib, 324 nafar iqtidorli o'quvchi orasida faxrli 3-o'rinni egalladi hamda bronza medalga sazovor bo'ldi.

IMAS (International Mathematics Assessment for Schools) – 2011-yildan buyon 3–8-sinf o'quvchilari o'rtasida tashkil etib kelinayotgan xalqaro olimpiada bo'lib, ikki bosqichda o'tkaziladi. U o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va muammolarni samarali hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

Muhammaddiyorning ushbu yutug'i, albatta, tasodifiy emas. U 2024-yil sentabr oyida maktabda o'tkazilgan ichki saralash olimpiadasida muvaffaqiyatli ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritgan va terma jamoa safiga qabul qilingan. Shundan so'ng mashg'ulotlarda muntazam qatnashib, o'z bilim va mahoratni oshirib bordi. Shuningdek, joriy yilda Eron Geometriya olimpiadasida 8-sinf o'quvchilari bilan birga ishtirok etib, O'zbekiston bo'yicha bronza medalni qo'lga kiritdi.

Yosh matematik terma jamoa treneri — xalqaro olimpiadalar g'olibi, «Mard o'g'lon» davlat mukofoti sovrindori, tajribali pedagog Jahongir Norboyev rahbarligida ta'lim olmoqda.

– Muhammadiyor tengdoshlari orasida matematikaga bo'lgan kuchli qiziqishi, qobiliyati va yosh bo'lishiga qaramay mas'uliyatni chuqur his qila bilishi bilan ajralib turadi. U berilgan topshiriqlarni vaqtida unumli foydalangan holda, doimo to'liq va sifatli bajarishga harakat qiladi, – deydi Jahongir Norboyev.

Ta'kidlash joizki, bunday yutuqlar nafaqat o'quvchining shaxsiy mehnati, balki ta'lim muassasasida yaratilgan zamonaviy shart-sharoitlar, o'qituvchilarning yuqori salohiyati va tizimli tayyorgarlik samarasidir. Maktab-internatda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Muhammaddiyor Usmonjonovning ushbu yutug'i barcha o'quvchilar uchun ibrat bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida u yanada yirik xalqaro musobaqalarda qatnashib, yurtimiz sharafini munosib himoya qilishiga ishonamiz.

**Adolat FAYZIYEVA,**  
**o'z muxbirimiz.**

*Toshkent shahri.*

## МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(13 – 19 апрель)

**Кўй (21.03 – 20.04).** Бу ҳафта сиз учун жуда самарали ва омадли келади.



Оилавий юмушларда кўп нарсага улгура олмасангиз ҳам, иш жойингизда барча вазифаларни муваффақиятли амалга оширасиз.

Молиявий масалаларда ҳам қийинчиликка дуч келмайсиз. Дам олиш кунлари табиат кўйнида ҳордиқ чиқаринг.

**Бузоқ (21.04 – 20.05).** Дастлабки икки кун бироз оғир кечади.



Ўзаро тушунмовчилик ва мурасага келмаслик атрофдагилар билан муносабатларга салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Аммо кейинги кунлар кайфиятингиз кўтарилиб, қўл урган ишларингиз осон ва енгил ҳал бўла бошлайди.

**Эгизаклар (21.05 – 21.06).** Ўз ютуқларингизни ошкор қилаверманг. Жанжаллашган ёки аразлашган инсонлар билан ярашиш учун ўзингизда куч топинг. Келиб тушиши кутилаётган даромад ўзгарувчан кайфиятга ижобий таъсир кўрсатади. Дам олиш кунларини сокин муҳитда ва тоза ҳавода ўтказишга ҳаракат қилинг.



**Қисқичбақа (22.06 – 22.07).** Ҳафта давомида бутун куч ва шижоатни тўплаб, ўзингизга бўлган ишонч даражасини юқори ушланг. Сешанба янги шартнома ва битимлар тузиш учун омадли кун – сарфланган маблағ катта фойда келтиради. Режаларингизни ҳеч кимга билдирманг.

**Арслон (23.07 – 23.08).** Бу ҳафтада саломатликка жиддий эътибор қаратиб, ўзингизга бироз дам беринг ва келгуси узоқ муддат учун куч-қувват йиғинг – бу сизга ҳозир жуда зарур. Оила аъзоларингизга кўпроқ вақт ажратишга ҳаракат қилинг.



**Паризод (24.08 – 23.09).** Шу ҳафтада ўрнатилган муносабатлар муваффақиятли ва юқори даражада кечади. Аммо янги ишга киришиш учун бу давр тўғри келмайди. Молиявий масалаларда тежамкор бўлинг, чунки белгиланган мақсадларга эришиш учун пул жамғариш зарур. Режаларингизни сир сақлаганингиз маъқул.



**Тарози (24.09 – 23.10).** Бу даврда яқин кишингиздан кутилмаган совға ёки хушхабар оласиз. Бундан ташқари, ташаббускорлик ва ишдаги фаоллик ортидан барча молиявий масалаларни омадли ҳал қилишингиз мумкин. Сиз учун сешанба энг самарали кун бўлади.



**Чаён (24.10 – 22.11).** Ушбу кунларда кайфиятингиз кўтаринки бўлиб, қўл урган барча ишларингиз бароридан келади. Бу ҳафта ҳам ишда, ҳам оилада ўзингизни кўрсатиш учун яхши палла. Бироқ бу жараёнда ортиқча ҳис-ҳаяжонга берилмай, имкон қадар босиқлик билан иш юритиш лозим.

**Ўқотар (23.11 – 21.12).** Иш жойингизда кутилмаган ва асосий ўзгаришлар юз беради. Бу ҳафта кадрдонлар ва дўстлар кўмаги, меҳр-муҳаббатидан тўлиқ баҳраманд бўласиз. У молиявий жиҳатдан ҳам муваффақият сиз томонда бўлади.



**Тоғ эчкиси (22.12 – 20.01).** Бу давр сиз учун ўта омадли бўлиб, кескин ўзгаришлар ва кутилмаган воқеаларга бой бўлади.



Режалаштирилган барча юмушлар ва кўзланган мақсадлар кўнгилдагидек амалга ошади. Бунинг учун янада фаол ҳаракат қилишингизга тўғри келади. Айниқса, чоршанба энг самарали кун бўлиб, фойдали ва истиқболли ишларга қўл урасиз.

**Қовға (21.01 – 19.02).** Оилавий муносабатларга путур етмаслиги учун жаҳл ва ғазабга эрк бермай, ақл билан иш юритинг. Яқинларингизнинг кўнглини оғритишдан имкон қадар йироқ туринг. Шахсий ҳаёт борасида хушёр ва синчков бўлган маъқул. Бирон танлов олдидан кўп карра яхшилаб ўйлаб кўришни унутманг.



**Балиқ (20.02 – 20.03).** Одамлар билан муносабат ўрнатишда ва иш жойингизда фаолроқ бўлинг. Ҳар жабҳада ақл-заковат ва яхши дид эгаси эканингизни исботланг. Ушбу ҳафта кутилмаган пул тушуми кайфиятингизни кўтаради.

## Саломатлик сабоқлари

## ШИФОБАХШ «ЖУФТЛИК»

Асал қўшилган сут бир неча юз йиллар давомида синалган фойдали ичимлик бўлиб, ҳар икки маҳсулот зарур озиқ моддаларга бой ва саломатликка ижобий таъсир кўрсатади. Асал кучли антиоксидант ва микробларга қарши курашиш хусусиятига эга. Сут эса оқсил, кальций ва сут кислотаси манбаи ҳисобланади. Биргаликда истеъмол қилинганда, уларнинг фойдаси икки баравар ортади.

Илиқ сутга бир чой қошиқ асал аралаштириб ичиш танга шифобахш этади. Жумладан, бундай ичимлик:

\* Юрак фаолиятини яхшилайдди. Маълумки, сут артерия томирларини тозалаш ва юрак касалликларидан ҳимоя қилишга ёрдам берадиган «яхши» холестерин даражасини оширади. Шунингдек, у артерия босимини камайтиришга кўмаклашадиган муҳим нутриент – калий манбаи ҳисобланади. Асал эса юрак хасталиклари хавфини оширувчи триглицеридлар, умий холестерин ва «ёмон» холестерин даражасини камайтиради.

\* Шамоллашни даволайди. Бу ичимлик бактерияларни нобуд қилиб, уларнинг томоқ йўлларида кетишига ёрдам беради. У анъанавий тиббиётда шамоллаш, ангина ва йўтални даволашда кенг қўлланилади.

\* Суякларни мустаҳкамлайди. Кальцийга бой сут тиш ва суяклар ҳолатига ижобий таъсир кўрсатади, асал ва унинг ферментлари организмга озиқ моддалар сўрилишида ва кальцийни ўзлаштиришда ёрдам беради.

\* Овқат ҳазмини яхшилайдди. Пребиотик ҳисобланган асал овқат ҳазм қилиш тизимида фойдали ёки «яхши» бактериялар



кўпайишига хизмат қилади. Ҳар кун ичиқ сутга қўшиб ичилганда эса соғлом бактерияларни тиклашга, ошқозон-ичак тракти саломатлигини сақлашга ёрдам беради, қорин дам бўлиши ва спазмлардан халос этади.

\* Уйқуни яхшилайдди. Сут-асал аралашмаси қадимдан уйқусизликка қарши восита сифатида қўлланиб келинади. У мияга тинчлантирувчи, бўшаштирувчи таъсир кўрсатади.

\* Қувват бахш этади. Ушбу ичимлик эрталаб истеъмол қилин-

ганда, танани углевод, оқсил ҳамда янги кунни бошлаш учун зарур бўлган бошқа муҳим озиқ моддаларига тўйинади. Шунингдек, асал моддалар алмашинувини ва организмдаги барча жараёнларни тезлаштиради, кун давомида куч-қувват беради.

\* Стрессдан халос этади. Сут ва асал истеъмоли тинчлантирувчи таъсирга эга бўлиб, мияда сокинлашишга ёрдам берувчи серотонин ажралиб чиқишига кўмаклашади. Бундан ташқари, у стресс гормони ҳисобланган кор-

тизол даражасини камайтиради. Асалнинг табиий ферментлари эса кайфиятни кўтаришга хизмат қилади.

\* Ўпка касалликларини даволайди. Бу икки маҳсулот стафилококк каби организмларга нисбатан антибактериал хусусиятга эга. Аралаш ҳолдаги илиқ ичимлик таъсири эса янада кучли бўлиб, нафас йўллари инфекцияларидан самарали халос этади.

\* Овқат ҳазм қилиш тракти инфекцияларига қарши курашади. Ичимлик ошқозон ва ичакларда инфекция келтириб чиқарувчи бактерияларни нобуд қилиб, фойдали ичак бактерияларини тиклайди ва деярли ҳар қандай ошқозон касалликларини даволашда ёрдамчи восита ҳисобланади.

\* Тери ва сочлар ҳолатини яхшилайдди. Сут ва асал кўпгина фойдали витамин, антиоксидант, ёғ ва юмшоқ кислоталарга бой бўлгани боис қадимдан турли косметик воситалар таркибида қўлланилади. Сут-асал «коктейли»ни ташқи қўллаш куруқ ва қариётган терини юмшатади ҳамда тўйинтиради, экзема ва ҳуснбузарларни йўқотади, ўлик хужайраларни бартараф қилади, тери ва сочларга жило бахш этади, қазғоқлардан халос қилади.

**Илҳом НАВРЎЗОВ,**  
Тошкент шаҳар ИИББ Тиббиёт бўлими поликлиникаси бошлиғи ўринбосари, капитан.

## Здоровье

НОЧНАЯ ОДЫШКА:  
ЧТО ЭТО ЗНАЧИТ?

Если в положении лежа появляется одышка, это тревожный сигнал. Чаще всего причина связана с сердцем: в горизонтальном положении увеличивается нагрузка, и может возникнуть застой жидкости в легких.

Иногда проблема связана с желудком. При рефлюксе (когда кислое содержимое из желудка забрасывается обратно) пищевод раздражается, и может вызывать ощущение нехватки воздуха. Также дыхание может ухудшаться из-за давления на диафрагму, например при лишнем весе.

Чтобы облегчить состояние, спите с приподнятой головой и не ешьте за 3–4 часа до сна.

Если одышка появляется внезапно, усиливается, сопровождается хрипами или отеками, важно как можно скорее обратиться к врачу.

ПРИРОДНЫЙ  
ФИЛЬТР

Перловая крупа богата растворимой клетчаткой, которая помогает выводить токсины, лишний холестерин и соли тяжелых металлов.

Она оказывает легкий мочегонный эффект, снижает отеки и поддерживает работу лимфатической системы.

Перловый отвар можно пить понемногу в течение дня – народное средство при очищении организма.

Варите крупу 50–60 минут после замачивания. Добавляйте в рацион 2–3 раза в неделю как гарнир.

## НЕЗАМЕТНОЕ ПЕРЕЕДАНИЕ

Привычка есть перед телевизором кажется безобидной, но она напрямую влияет на аппетит. Когда внимание отвлечено, сигналы насыщения притупляются, человек съедает больше, чем нужно, сам того не замечая.



Мозг занят информацией, а не процессом еды, поэтому позже «понимает», что желудок уже наполнен. В результате возникает переедание даже при обычной пище.

После такой еды часто появляется тяжесть и дискомфорт. Кажется, что дело в продуктах, но причина в самой привычке есть на фоне экрана.

Если есть осознанно, без телевизора, насыщение приходит быстрее, порции уменьшаются, а пищеварение происходит легче.

Иногда достаточно просто выключить экран, и питание становится более здоровым.

Мозий манзаралари

# ТОШКЕНТДАГИ КИЧИК ПЕТЕРГОФ САРОЙИ

Мамлакатимизда қурилган кўплаб тарихий иншоотлар қизиқарли воқеалар ҳақида сўзлаб беради. Тошкент меъморчилигининг дурдоналаридан бири бўлган, 1891 йилда қурилган буюк князь Николай Константинович Романов саройи ҳам кўп йиллар давомида шаҳар аҳолиси ва сайёҳларда катта қизиқиш уйғотиб келган.



янги ҳаётни бошлади: инфратузилмага сармоя киритди, кинотеатр, нов-войхона очди, ирригация билан шуғулланди ва турли маданий тадбирлар уюштирди. Айнан шу даврда унда ўз саройини қуриш ғояси пайдо бўлди – бу нафақат тураржой,

Сарой Русь императори Николай I нинг набираси, 1850 йилда туғилган князь Николай Константинович Романовга тегишли бўлиб, унинг отаси – буюк князь Константин Николаевич Россия императори Александр II нинг укаси бўлган.

Шаҳзодани нафақат князь, балки Буюк князь деб аташ керак эди. Унинг ҳаётининг кўп қисми Шарқ билан боғлиқ. 1873 йили Қизилқум орқали ўтган Хива юришидан сўнг у том маънода чўллар ва Марказий Осиё тарихини ўрганиш билан қизиқиб қолди. Туркистондан Санкт-Петербургга қайтиб келганидан анча вақтгача кечки оқшомларда у севгилисидан америкалик Фанни Лирга Хоразм қалъалари, миноралари ва Шарқ маданияти ҳақида гапириб берарди.

Николай Константинович Романовлар сулоласининг энг билимли вакилларида бири бўлган. У ҳарбий хизмат, санъат асарларининг ихлосманди, саёҳат ва илмга иштиёқи баланд инсон эди. Аммо тақдир зарбалари унинг ҳаётини тубдан ўзгартириб юборди. Ота-онасига тегишли заргарлик буюмларининг сирли йўқолиши билан боғлиқ жанжалдан сўнг, шаҳзода руҳий касал деб эълон қилинади ҳамда Санкт-Петербург ва император саройидан узоқда жойлашган Туркистонга сургун қилинади.

Князь империя марказидан узоқда, кўчалари чанг, аммо салоҳиятга бой бўлган Тошкентда

балки маданий марказ, музей, янги ҳаётининг рамзи бўлишини хоҳлади.

Сарой қуриш учун князь Туркистон ўлкасининг қурилиш идораси раҳбари, аслида бутун умри давомида генерал-губернаторлик даврида хизмат қилган Вилгельм Гейнзелманга ва Туркистон ўлкасида қурилиш билан шуғулланган меъмор Алексей Бенуага мурожаат қилади. Сарой бу ерларга хос бўлмаган ноанъанавий шаклда қурилади. Унинг ичида ғарбий ва шарқий қанотлар мавжуд бўлиб, улар чет элликларни қабул қилиш учун махсус қурилган. Қароргоҳнинг ғарбий қисмида Европа ва рус меҳмонларини, шарқий қисмида эса Эрон, Ҳиндистон ва бошқа Шарқ мамлакатларидан ташриф буюрувчиларни қабул қилган. Саройнинг Осиё қаноти бинонинг энг гўзал жойи ҳисобланган. Князь иштиёқли овчи бўлгани учун унинг киравериш қисми кийик ва ов итларининг бронза ҳайкаллари билан безатилган. Унинг ҳаёти давомида бинодан санъат асарларини намойиш қилиш учун фойдаланилган. Меҳмонлар саройни Кичик Петергоф деб ҳам аташган. Сарой XIX асрда экилган улкан эман ва чинорлар билан ўралган.

Князь Тошкентда қарийб қирқ йил яшаб Туркистон ўлкаси учун кўп ишларни амалга оширган илғор инсон бўлган. У ўлкада бир нечта каналлар қурган ажойиб ирригатор ҳам эди. Улардан бири

тадбиркорлик фаолиятдан олган йиллик даромади 1,5 миллион рублга етган. Таққослаш учун: унга Санкт-Петербургда харажатларни қоплаш учун йилига атиги 200 минг рубл ажратилар эди, холос.

Николай Романов Туркистонни ўз она юртидек севарди ва бутун умрини шу ўлканинг ривожига бағишлади. Буюк князь 1918 йил январь ойида 68 ёшида ўпка яллиғлинидан вафот этди. Уни Романов саройининг кираверишидаги Иосиф-Жорж ибодатхонасига дафн қилишди.

Князь ўз васиятномасида тўпланган сармояларни ногирон



Искандар ариғи Тошкент вилоятида оқади. Фаллаорол ва Жиззах чўлларини сув билан таъминлаш учун 100 км узунликдаги «Император Николай I» номли каналини қурган. Николай Константинович ўз маблағи эвазига Тошкент шаҳрини ободонлаштириш ва хайрия ишларига катта ҳисса қўшган. Жумладан, Россиянинг етакчи олий ўқув юрларида ўқиш учун Туркистондан борган талабалар учун ўнта стипендия таъсис этган, Тошкент кўчаларини тош билан қоплаш ишларини йўлга қўйган, театр, клуб, касалхона ва цирк иншоотларини барпо этган.

Бундан ташқари, князь Тошкентдаги маданий ҳаётга ҳам хомийлик қилар эди. Шунинг учун у кинотеатрларни қуришга киришди. Князь биринчи кинотеатрини Туркистон ўлкаси бўйлаб қилган илк сафари шарафига «Хива» деб номлади. Совет ҳукумати даврида кинотеатр «Ёш гвардия» деб ўзгартирилган ва 1966 йилда зилзила натижасида вайрон бўлган.

Шунингдек, князь совун ишлаб чиқариш ва пахта тозалаш заводларини қуриш билан ҳам шуғулланиб, чиқиндисиз пахта ишлаб чиқаришни йўлга қўяди. Шаҳар аҳолиси ва меҳмонлар кечаларни қизиқарли ва мазмунли ўтказишлари учун маданий ва кўнгилочар масканлар очди. Унинг

фахрийлар учун ўша пайтдаги Тошкент шаҳар Думасига, ирригация иншоотларини сақлаш учун Туркистон ҳукуматида, қишлоқ мактаблари ўқитувчиларини тайёрлаш учун Тошкент университети ва Туркистон ўқитувчилар семинариясига топширган. Унинг кунт билан тўплаган санъат асарлари ва ҳайкаллари бугунги кунда Ўзбекистон Давлат санъат музейида сақланмоқда.

Бу тарихий бинодан кўп йиллар давомида Ўзбекистон санъат музейи, сўнгра Ўзбекистон антиқа ва заргарлик санъати музейи ҳамда Ўзбекистон Ташқи ишлар вазирлигининг халқаро қабуллар уйи, совет даврида эса Кашшофлар саройи сифатида фойдаланилган.

Бугунги кунда саройда таъмирлаш ишлари олиб борилмоқда. Таъмирлаш якунлангач бу ерда Буюк князь коллекциясига оид доимий музей экспозицияси, шунингдек, сарой тарихи ва Романовлар даври билан боғлиқ кўргазмалар ташкил этиш режалаштирилган.

Ҳозирда ҳам шаҳар марказида қурилган ҳашаматли сарой Тошкент шаҳрининг энг диққатга сазовор жойларидан бири бўлиб қолмоқда.

**Файратулла ШУКУРОВ,**  
Ўзбекистон Республикасида  
хизмат кўрсатган маданият  
ходими.

«O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!»

# QADAMJOLAR BAG‘RIDAGI UNUTILMAS LAHZALAR

Loyiha doirasida yaqinda Surxondaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi faxriylari va yosh xodimlari uchun tashkil etilgan sayohat ishtirokchilar qalbida unutilmas xotiralar qoldirdi.

Sayohat poytaxtimizdagi zamonaviylik va ma‘naviyat uyg‘unlashgan maskan – Islom sivilizatsiyasi markazini tomosha qilishdan boshlandi. Bu yerda har bir eksponat go‘yo asrlar osha buyuk ajdodlarimizdan qolgan ma‘naviy meros haqida so‘zlab tur-

ganday taassurot uyg‘otdi. Markaz mutaxassislari tomonidan berilgan qiziqarli ma‘lumotlar sayohatchilarning bilimlarini yanada boyitdi.

Sayohatchilar shahri azimdagidagi noyob xotira maydoni – «G‘alaba bog‘i»-da ham bo‘lishdi. «Shon-

sharaf» muzeyi, «Abadiy olov» maydoni va tarixiy kompozitsiyalar ishtirokchilar qalbida chuqur ehtirom va faxr tuyg‘ularini uyg‘otdi.

Sayohatning ikkinchi kuni esa qadimiy va muqaddas Samarqand shahrida davom etdi. Ishtirokchi-



lar islom olamining buyuk allomasi Imom al-Buxoriy majmuasiga, Hazrat Xizr masjidida bo‘lishdi va mamlakatimizning birinchi Prezidenti Islom Karimov qabrini ziyorat qilishdi.

Bunday sayohatlardan ko‘zlangan asosiy maqsad – inson qalbini boyitish, Vatanga muhabbat, ta-

rix va ajdodlarga bo‘lgan hurmat tuyg‘ularini yanada mustahkamlashdir. Zero, yurt taqdiriga daxldor har bir inson uchun ma‘naviyat va tarix – eng buyuk kuch manbayidir.

**Feruz**  
**RAHMONQULOVA,**  
**o‘z muxbirimiz.**

*Surxondaryo viloyati.*



**MUASSIS:**  
**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI**

**Bosh muharrir**  
polkovnik  
**Bernora SADIKOVA**

**Bosh muharrir o‘rinbosarlari**  
podpolkovnik  
**Azizjon FAYZIYEV**  
mayor  
**Aziza BOHODIROVA**

**Mas‘ul muharrir**  
**Erkin SATTOROV**

**Veb-dizaynerlar**  
**Zokir BOLTAYEV**  
**Ilhom JUMANOV**  
**Akbar BOLTAYEV**

**Navbatchilar**  
**Sarvar SOBIROV**  
**Yuliya MUSTAFAYEVA**

**TELEFONLAR:**  
71-231-33-88;

**Obuna masalalari bo‘yicha:**  
71-231-38-74;  
97-420-89-24

**Web-site:** www.postda.uz  
**E-mail:** info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r  
23402000300100001010.  
Bank kodi 00014.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g‘aznachiligi.

Shaxsiy h/v  
460010860262877031101179003  
STIR 200637499.

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Manzilmiz: 100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko‘chasi 9-uy.

Buyurtma № 972.  
Bosilish – ofset usulida.  
Bichimi – A3.  
Hajmi – 6 bosma taboq.  
49764 nusxada chop etildi.

**Obuna raqamlari:**  
Yakka tartibda – 180.  
Tashkilotlar uchun – 366.  
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.  
Bosishga topshirildi – 21.00.  
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonaning manzili: 100206 Yunusobod tumani, Yangishahar ko‘chasi 1<sup>A</sup>-uy.